

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

Tabiiy fanlar va geografiya

Fakulteti dekani:

_____ dots. V.Azizov

“ _____ ” 2012 yil

**“Himoyaga ruxsat beraman”
kafedra mudiri**

_____ dots. B.Baratov

“ _____ ” _____ 2012 yil

TABIY FANLAR va GEOGRAFIYA FAKULTETI

**5440500-Geografiya kundizgi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat
bosqichi bitiruvchisi**

Yuldashev Nuriddin Xasanovich

**Tadbirkorlikni rivojlantirishda mexnat
resurslaridan oqilona foydalanish muommolari
mavzuidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar :

g.f.n.dots. M.Maxmudova

Namangan – 2012

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI	7
1.1. Tadbirkorlik faoliyatining mohiyati va iqtisodiyot uchun ahamiyati	7
1.2. Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va mehnat resurslaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari	19
1.3. Tadbirkorlikni rivojlantirishda investitsiya muhitining ahamiyati	32
II BOB. ANDIJON VILOYATIDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA MEHNAT RESURLARIDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY AHAMIYATI VA MUAMMOLARI	43
2.1. Andijon viloyati iqtisodiy salohiyatini geografik tahlili	43
2.2. Tadbirkorlikni rivojlantirishda mintaqa mehnat resurslaridan oqilona foydalanish	51
2.3. Tadbirkorlikni rivojlantirish asosida mehnat resurslaridan foydalanishning istiqbol yo'nalishlari	62
XULOSA	70
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	72

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning turli bosqichlarida iqtisodiyotimizning tarkibiy tuzilmasida tub o'zgarishlarga asos solishdan iborat g'oyat muhim masalalardan biri bu tadbirkorlikni rivojlantirish va bu orqali ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni bartaraf etish xisoblanadi.

Xususiy tadbirkorlikka soliq, bojxona, tashqi iqtisodiy faoliyat va boshqa sohalarda turli imtiyozlar berish orqali ularning har tomonlama rivojlanishiga imkoniyatlar yaratildi. Ular faoliyatiga davlat boshqaruv va nazorat organlarining noqonuniy aralashuviga chek qo'yilmoqda, hokimiyat organlaridan tadbirkorlik sub'ekti ro'yxatdan o'tish tartibi keskin soddalashtirildi, ularga xizmat ko'rsatishda sansolarlikka yo'l qo'ygan rahbar va mas'ul xodimlar javobgarligini oshirish bo'yicha tegishli me'yoriy huquqiy baza kundan-kunga takomillashib bormoqda. Xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan keng chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish maqsadida, 2011 yil O'zbekiston Respublikasida "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" deb e'lon qilinganligi, qolaversa "... kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti tarkibida hal qiluvchi tarmoqqa, ijtimoiy faol aholimizning katta qismini qamrab olgan sohaga aylandi. Hozirgi vaqtda – shunga urg'u berib aytmoqchiman – ish bilan band aholimizning 74 foizdan ortig'i aynan shu sohada mehnat qilayotgani buning yaqqol tasdig'idir"¹ degan fikrlari mazkur soxani dolzarbligini belgilab beradi.

Ushbu mavzu o'tkazilayotgan ilmiy tadqiqotlarning yana bir davomi sifatida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda shuni aytish kerakki, hozirgi kunda tadbirkorlikni rivojlantirishning muhim masalalardan biri bu-respublikamizda xom ashyo resurslaridan foydalanib yangi turdagi ma'sulotlarni ishlab chiqarish bo'lsa, ikkinchi masala mazkur faoliyatda mehnat resurslari bandligini takomillashtirishdir.

Mavzuning o'rganganlik darajasi. Mamlakatimiz olimlari, chet el olimlari, yirik iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida ham tadbirkorlikka oid izlanishlar olib borilgan va o'rganilgan. Bu borada Germaniya, Frantsiya, AQSH, va Rossiya mamlakatlarida yaratilgan nufus nazariyasi, bozor zonasi, sanoat aglomeratsiyasi, o'sish qutblari va shtandort va ishlab chiqarish komplekslari, kompleks rivojlantirish masalalari kabilar alohida ahamiyat kasb etadi. Rus olimlari A.Alesandrov, N.N. Nekrasov, A.E. CHalov, A.E Afanas'evskiy I.M. Mayergoyz, V.V. Kistanov, L.I. Gramoteeva, L.V. Kozlovskaya va boshqa mazkur sohalar bilan shug'ullanishgan.

O'zbekistonda ushbu sohada S.G'ulomov, B.Yu.Xodiev., E.A. Ahmedov, O.Abdullaev, SH.B.Imomov, O.B.Otamirzaev, A.S. Soliev, A.M.Sodiqov, N.To'xliiev, A.Qayumov va boshqalar faoliyat yuritgan. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tadqiqotchilar o'zlarining e'tiborini asosan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ijtimoiy iqtisodiy mazmunini ochib berishga, uning umumnazariy masalalarini o'rganishga, jamiyat hayotini moddiy jihatdan ko'tarishda ularning o'rni va ahamiyatini asoslashga qaratganlar.

Ushbu bitiruv malakaviy ishida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning alohida masalalari, bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda mehnat resurslaridan foydalanish, halq xo'jaligi u yoki bu tarmoqlarida mehnat resurslaridan foydalanish va tadbirkorlikni tashkil qilish masalalari o'rganilgan.

¹ 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalashlarga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi, 2012 yil 20 yanvar, №14

Ishning maqsadi va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi- mamlakat va mintaqa makroiqtisodiy holatini o'rganish zaminida, Andijon mintaqasi iqtisodiyotini yaxshilash va mehnat resurslaridan foydalanishda tadbirkorlik faoliyatini o'rni va ahamiyatini o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- Tadbirkorlik faoliyatining mohiyati va iqtisodiyot uchun ahamiyatini o'rganish;
- Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va mehnat resurslaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;
- Andijon viloyati iqtisodiy salohiyatini geografik tahlil qilish;
- mehnat resurslaridan oqilona foydalanish va ularning tadbirkorlikni rivojlantirishdagi xususiyatlarini aniqlash;

Andijon viloyatida viloyatida aholini ish bilan ta'minlashning asosiy yo'nalishlarini belgilash;

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti va predmeti. Andijon viloyati tadbirkorlik sub'etlari va mehnat resurslari ishning ob'ekti, viloyatda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va mehnat resurslaridan foydalanishning hududiy jihatlarini taxlil qilish predmetini belgilaydi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslari. O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident I.A.Karimov Farmonlari va asarlari, Vazirlar Mahkamasi Qarorlari, vatanimiz va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari va maqolalari uslubiy asos xisoblanadi.

Mazkur ilmiy tadqiqotlar ushbu muammolar bo'yicha davlat Statistika Qo'mitasi hamda Savdo-sanoat palatasi Andijon viloyat boshqarmasining moliyaviy va statistika ma'lumotlaridan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi. Hususiy tadbirkorlik rivojlantirishda mehnat resurslaridan foydalanish va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning geografik xususiyatlari va muammolari geografiya fani doirasida tadqiq etildi.

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish ayni chog'da aholisi zich Andijon viloyati uchun xos muammolardan sanaladi. Bu muammolarni hal etish uchun mahalliy imkoniyatlar asosida tadbirkorlikni shakllantirish orqali hal etish masalasi ham ochib berildi.

Bitiruv malakaviy ishining strukturaviy tuzilishi; kirish, 2 ta bob xulosa, adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Tadbirkorlikni rivojlantirishning nazariy va uslubiy asoslari deb nomlanuvich birinchi bobda tadbirkorlik faoliyatining mohiyati va iqtisodiyot uchun ahamiyati, tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va mehnat resurslaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari hamda tadbirkorlikni rivojlantirishda investitsiya muhitining ahamiyati ochib berilgan.

BMIning ikkinchi bobida Andijon viloyatida tadbirkorlikni rivojlantirishda mehnat resurslaridan foydalanishning iqtisodiy ahamiyati va muammolari ko'rilgan. Viloyatning iqtisodiy salohiyatini tahlil qilinib, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish va ularning tadbirkorlikni rivojlantirishdagi xususiyatlari, Andijon viloyatida aholini ish bilan ta'minlashning asosiy yo'nalishlari o'rganilgan.

I BOB. TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI

1.1. Tadbirkorlik faoliyatining mohiyati va iqtisodiyot uchun ahamiyati

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan xo`jalik yuritish sharoitida tadbirkorlik iqtisodiyotni harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. Qaysiki mamlakatda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish va rivojlantirish uchun kerakli huquqiy va tashkiliy sharoitlar yaratilgan bo`lsa, shu yerda iqtisodiyot taraqqiy topishi, rivojlanishi uchun asos yaratilgan bo`ladi.

“Tadbirkor” deganda daromad olish maqsadida, mas'uliyatni zimmasiga olgan holda, jamiyatga foyda keltiruvchi biron-bir iqtisodiy faoliyat bilan shug`ullanadigan shaxs tushuniladi. O`zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik to`g`risida”gi qonunida shunday ta'rif beriladi: - “Tadbirkorlik-mulkchilik sub'ektlarining foyda olish maqsadida tavakkal qilib va mulkiy javobgarligi asosida amaldagi qonunlar doirasida tashabbus bilan iqtisodiy faoliyat ko`rsatishdir”.

Ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida tadbirkorlik keng ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni o`z ichiga oladi va bunda huquqiy, ruhiy va tarixiy tomonlar mavjud. XVI asrda kapitalizmning shakllanishidan boshlab tadbirkorlik faoliyatiga diqqat e'tibor kuchaydi va iqtisodchilar, ruhshunoslar, siyosatchilar buni o`rganish uchun harakat qila boshladilar. Bulardan Sh.B.Sey, A.Marshall, V.Zombart, Y.Shumpeter, F.Nayt kabilarni tilga olish mumkin.

Dastlabki davrlarda “tadbirkor” ko`pincha “mulkdor” iborasi bilan bir xil tushunilgan. Keyinchalik real xo`jalik hayotida qatnashuvchi kapitalning mulkdor kapitaldan ajralib chiqishi natijasida “tadbirkorlik” tushunchasi “mulkdor” tushunchasiga to`g`ri kelmay qoladi.

Iqtisodiyot fanida tadbirkorlik haqidagi tushunchalar XVIII asrda R.Kantilon, A.Tyurgo, F.Kene, A.Smid, J.B.Sey asarlarida talqin qilina boshlandi. Bu davrda tadbirkorlik faoliyati to`g`risidagi iqtisodiy, tashkiliy va ruhiy tavsiflari eklektik (turli-tuman qarashlar) mazmundan iborat har xil tasavvurlar mavjud bo`lgan.

Tadbirkorlik faoliyatiga doir muhim jihatlarning tarixan o`zgaruvchanligi bilan birga u yangi-yangi tushuncha va ma'nolar bilan boyitilib bormoqda.

Tadbirkorlikning eng ilk bosqichlarida uning muhim alomati biron-bir shaxs-tadbirkor faoliyatining foydali yoki zararliligini belgilovchi hisoblangan. Keyinchalik tadbirkorning ijtimoiy-iqtisodiy vazifasi kengayib turli bozorlarda talab bilan taklifning muvozanatini tiklashga doir tavakkalchilik faoliyatidan iborat deb tan olindi.

Bozor iqtisodiyoti chuqur ildiz otib borishi natijasida “sarmoya egasi” va “tadbirkor” tushunchalari bir-biridan farqlana bordi.

Tadbirkor sarmoyasini muomalaga qo`yadi, ko`payib borishini ta'minlaydi. Shuningdek u venchur sarmoyadorlarni jalb qiladi. Tadbirkor o`z sarmoyalari bilan birga jalb qilingan moliyaviy mablag`larni ishbilarmonlik bilan tasarruf etuvchi shaxs sifatida ish yuritadi va oldiga qo`ygan maqsadga erishish uchun o`z g`oyalari, bilimi, ko`nikmalarini tadbiriq etib, ko`p foyda olish maqsadida ixtiyorida bo`lgan mablag`larni tavakkal ishlarga sarflaydi.

R.Kantilon va undan keyingi neoklassik maktab vakillari o`z asarlarida tavakkalchilik asosida raqobatlashib, savdo faoliyati bilan shug`ullanuvchi korxonaga egasini “tadbirkor” deb hisoblaydilar.

Tadbirkorning olgan foydasi “tavakkalchilik uchun to`lov” deb qaralgan. “Bu foydaning bo`nak (avans) qo`yilgan sarmoyadan keladigan foyda va ish haqidagi tafovuti ham ana shunda” deb talqin etganlar.

I.fon Tyunen tadbirkorlikda tavakkalchilik bilan innovatsiya faoliyatiga doir vazifalarni birlashtirishga doir fikrni bildiradi. U “tadbirkorlik foydasi tavakkalchilikdan va yangiliklar

qo'llab iqtisodiy samaradorlikka erishish natijasida oladigan daromaddan tashkil topadi" degan fikrni bildiradi.

Jan Batist Sey esa tadbirkorni "vositachi, ishlab chiqarish omillarining koordinatori, tajriba va bilim egasi" deb ta'riflaydi. "Uning daromad miqdori tadbirkorlik qobiliyatining bahosi" deydi. V.Zombart esa "tadbirkorlikdagi tavakkalchilik faqat sanoat, savdodagina bo'lmay, boshqa sohalarga ham xos" -deb, ularni qaroqchi va talonchilar bilan tenglashtiradi. Y.Shumpeterni olsak, u tadbirkorlikning bosh muhim tomonini:

- 1) iste'molchilarga noma'lum yangi tovarlar ishlab chiqarishni;
- 2) ishlab chiqarishning davomiyligi va mavjud tovarlar tijoriyligini ta'minlashni;
- 3) yangi tovarlarni o'zlashtirishni;
- 4) xom ashyolarni ishlatishni;
- 5) tarmoqni takomillashtirishni ko'rsatib beradi.

U "Tadbirkor mulkdor bo'lishi shart emas, u yollanuvchi bo'lishi ham mumkin. Tadbirkor - yangi kombinatsiyalarni amalga oshiruvchi shaxsdir" -deb ta'kidlaydi. Ba'zi adabiyotlarda "biznes" va "tadbirkorlik" tushunchalari ayri holda ko'rsatilib, tadbirkorlikka ishlab chiqarish sohasidagi, biznesga esa ishlab chiqarishdan boshqa sohalardagi iqtisodiy faoliyat sifatida izoh beriladi.

"Biznes" va "tadbirkorlik" tushunchalarining mohiyati bir xil. Bu so'z inglizchadan olingan bo'lib, biznes-"ish", men-"odam" degan ma'noni anglatadi. Biznes-tadbirkorlik iqtisodiy kategoriya bo'lib, u xo'jalik yuritish usuli, iqtisodiy faoliyat turidir. Tadbirkorlik sub'ektlari turlichadir: ular-yakka xususiy tadbirkorlar, jismoniy shaxslar, korxonalar, tashkilotlar, ular nomidan ish yurituvchi yuridik shaxslar, hissadorlik jamiyatlari, jamoalari, shuningdek davlat korxonalarini tadbirkorlik asosida faoliyat yuritayotgan bo'lsa sub'ekti bo'lishi mumkin. Ammo davlatning tadbirkorligining tartibi va unga amal qilinishi nazorati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlari, xodimlari tadbirkorlik sub'ekti bo'la olmaydi. Chunki daromad olish uchun sarmoyadan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lganlar tadbirkorlikning real sub'ekti bo'la oladilar.

"Tadbirkorlik ob'ekti" deganda, avvalo ma'lum faoliyatni tushunamiz. Tadbirkorlik faoliyatida yaratilgan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar, undan olingan daromadlar moddiylashadi.

Tadbirkorlik faoliyati - bozor iqtisodiyotining alohida bo'g'inlarida, takror ishlab chiqarish borasida xizmat ko'rsatuvchi tashkiliy, iqtisodiy, moliyaviy, huquqiy va boshqa xo'jalik munosabatlarining majmuidir. Shu sababli tadbirkorlik-bozor xo'jaligining rivojlanishini ta'minlovchi vositadir. Lekin tadbirkorlik jamiyatda o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlik faoliyati yaxshi huquqiy baza mavjud bo'lgan taqdirda ham yetarli tashkiliy va iqtisodiy sharoitlar mavjud bo'lmasa, rivoj topmaydi.

Demak, tadbirkorlik bilan iqtisodiy taraqqiyot hamisha bir-biriga bog'liq holda yonma-yon boradi. Tadbirkorlik doimo ma'lum yo'nalishda tashkil topib aniq shakllarda ifodalanadi, lekin xo'jalik yuritish usuli sifatida bir necha umumiy xususiyatlarga ega. Jumladan, xo'jalik sub'ektlarining mustaqilligi, iqtisodiy manfaatdorlik, xo'jalik yuritishning doimiy xatarliligi va javobgarliligi. Shuningdek, tadbirkorlik avvalo novatorlik bilan belgilanadi, chunki u doimo iqtisodiy faoliyatda yangiliklarni axtarish, ularni amalga oshirish, faoliyat samaradorligini ko'tarish uchun harakatda bo'lishi lozim.

Tadbirkorlikdagi mustaqillik, avvalo, erkin holda mustaqil ravishda bir qarorga kelish imkoniyatini beradi; bu qaror esa bozor mexanizmi harakatini ta'minlaydi. Aytaylik, ma'lum sarmoyaga ega va istagi bor shaxs biznesga kirishishi, o'zining tijorat ishini yoki ishlab chiqarishni tashkil etishi mumkin. Chunki ishlab chiqarish resurslari, ya'ni ishlab chiqarish vositalari va ish kuchini bozordan sotib olishi mumkin. Nima ishlab chiqarish, qancha ishlab

chiqarish, kimga sotish, qanchaga sotish kabilar erkin tarzda, bozor holatini o`rgangan holda tadbirkor tomonidan hal etiladi. Lekin har bir tadbirkor hech qachon butunlay alohida, yakka bo`lmaydi. To`g`ri, tadbirkor yuqoridan xo`jayinlik qilinishidan, nima qilish, qanday ishlashni belgilab berishdan ozod bo`ladi, ammo bozordan va uning qattiq talablaridan, mexanizmlari ta`siridan holi bo`la olmaydi. Zero, bozor iqtisodiyotiga asoslangan xo`jalik yuritish shakli ko`pchilik faoliyatining natijalaridir.

Bozor iqtisodiyotiga o`tish jarayonida tadbirkorlikni rivojlantirish uchun zarur huquqiy muhitni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, tadbirkorlik har xil ijtimoiy me'yorlar ta`sirida bo`lib, ularning ichida huquqiy normalar, ishdagi saranjomlik, ishbilarmonlik, odob-ahloq qoidalari yetakchi o`rinlarda turadi.

Tadbirkorlikning huquqiy asoslari O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Fuqarolik va Xo`jalik protsessual kodekslari, amaldagi qonunlar, Oliy Majlis qarorlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlaridan tortib, toki vazirliklar idoralarning huquqiy hujjatlarida belgilab berilgan.

SHunga muvofiq:

- ◆ Tadbirkorlik bilan shug`ullanmoqchi bo`lgan har shaxs o`z tashabbusi bo`yicha, o`z ixtiyori bilan, begona shaxsning tazyiqisiz yoki ko`rsatmasiz faoliyat turini tanlaydi. Faoliyatini amalga oshirish vazifalari usuli va uslublarini mustaqil ravishda o`zi belgilab oladi.
- ◆ Tadbirkorlik-bozor iqtisodiyotiga xos maxsus faoliyat. Tadbirkor foyda olish maqsadida mahsulot ishlab chiqaradi yoki xizmat ko`rsatadi.
- ◆ Tadbirkor -o`z tasarrufida ishlatish yoki o`zga mulkdan foydalanib, tovar ishlab chiqaruvchi yoki xizmat ko`rsatish yo`li bilan pul topuvchi shaxs.

Mulkn ijaraga beruvchilar, pulini omonat bankka qo`yib foiz oluvchilar, qarzga pul berib foiz olib sudxo`rlik qiluvchilar, tadbirkor emas. Bunday holatlar tadbirkorlikka kirmaydi. Tadbirkorlik mashaqqatli ish bo`lib hammaning qo`lidan kelavermaydi.

Tadbirkorlik bilan shug`ullanuvchi kishining albatta tayyorgarligi bo`lmog`i lozim. Tadbirkorlikka qiziqqan iste'dodli kishilar aholi ichidan ko`plab topiladi. Biznes-jozibador. U o`z girdobiga ko`plab kishilarni tortadi.

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug`ullanuvchilar quyidagi tamoyil va shartlarga ko`ra ish ko`rishlari kerak bo`ladi (1-chizma).

(1-chizma)

Tadbirkorlikning muhim tamoyillari va shartlari.

	Mulkiy munosabatlarning ishtirokchisi	
Iqtisodiy xatti-harakatlari uchun		Iqtisodiy erkinlik
	Tadbirkorlikning tamoyillari va shartlari	
Foyda olishga intilish qatnashish		Tijorat siriga ega bo`lish bo`lish
	Amaldagi qonunlar doirasida faoliyat yuritish	

O`zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik to`g`risida"gi qonunida tadbirkorlik tuzilmalari, ularning tashkiliy-huquqiy shakllaridan qat'iy nazar, quyidagi huquq majburiyatlari ko`rsatib berilgan. qonunga asosan har qanday tadbirkorlik sub'ekti quyidagi huquqlarga ega:

-mamlakat qonunlari, Oliy Majlis qarorlari va davlat boshqaruv organlari hujjatlari bilan man etilmagan har qanday xo`jalik faoliyati bilan shug`ullanish;

-qonunga zid bo`lmagan har qanday korxonalar yoki tashkilot tashkil etish;

-tadbirkorlik faoliyatini olib borish uchun, shartnoma asosida begona fuqarolarning, korxonalarining, tashkilotlarning, shu jumladan, xorijiy yuridik va jismoniy shaxslarning mulkini, pul vositalarini va ba'zi mulkka bo`lgan huquqlarni jalb etish;

-qonuniy yo`l bilan qo`lga kiritilgan mulkni jalb qilgan holda begona xo`jalik sub'ektlarining faoliyatida ishtirok etish;

-respublikadagi joriy qonunlar va tuzilgan shartnomalar asosida o`zining xo`jalik dasturini mustaqil shakllantirish;

-o`z mahsuloti va xizmati uchun iste'molchi va ta'minotchini mustaqil tanlash;

-yaratgan tovariga va ko`rsatadigan xizmatiga tarif va narxlarni mustaqil belgilash;

-yollanma ishchilarni amaldagi qonun va mehnat shartnomasi asosida ishga qabul qilish va ishdan bo`shatish;

-yollangan ishchilar uchun ish haqi va boshqa daromad turlari, shakllari, tarkibi va miqdorini belgilash;

-o`zining pul vositalarini saqlash va barcha turdagi hisob-kitob, kredit operatsiyalarini bajarish uchun banklarda hisob raqamlarini ochish;

-ishbilarmonlik faoliyatidan kelgan daromadning soliqlar va boshqa majburiy to`lovlar to`laganidan qolgan qismini o`z hohishi bo`yicha ishlatish;

-cheklanmagan miqdorda har qanday shaxsiy daromad olish;

-davlat ta'minoti va ijtimoiy sug`urta tizimidan foydalanish;

-sudda, arbitrajda va xo`jalik sudida da'vogar va javobgar bo`lish;

-xorijiy valyuta sotib olish va joriy qonunlar asosida tashqi iqtisodiy faoliyatni mustaqil amalga oshirish.

Bizning mamlakatimizda xorijiy mamlakatlar tajribasiga suyangan xolda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga davlat tomonidan katta e'tibor berilmoqda. Bunga Oliy majlis tomonidan qabul qilingan "Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag`batlantirish tug`risida" gi O`zbekiston Respublikasi Qonunini misol qilib ko`rsatsa bo`ladi. Erkin raqobatga tobora keng imkon yaratish, turli mulkchilik shakllaridagi bozor sub'ektlari o`rtasida bo`ladigan iqtisodiy - xuquqiy munosabatlarni jaxon andozalari darajasida tashkil etish borasida ushbu qonun muxim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur qonunning 2- moddasida kichik va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining miqyosi anik belgilab berilgan. Jumladan, sanoat va qurilishda - 50 kishigacha, qishloq xo`jaligi va ishlab chiqarishning boshqa soxalarida - 25 kishigacha, fan va ilmiy xizmat ko`rsatish soxalarida -10 kishigacha, chakana savdoda - 5 kishigacha bo`lgan korxonalar kichik va xususiy tadbirkorlik doirasidagi korxonalar bo`lib xisoblanadi.

Tadbirkorlik rivojlangan davlatlarda uning moxiyati nimadan iborat? AQSh da 500 tagacha xodimi bo`lgan korxonalar kichik korxonalar xisoblanadi. Germaniya va boshqa Garbiy Yevropa davlatlarida esa 300 tagacha xodimi bo`lgan korxonalar kichik korxonalar xisoblanadi.

Xorijiy mamlakatlarda kichik korxonalarini 2 ta tamoman o`zgacha turlarga bo`lish mumkin:

1) xayotni ta'minlovchi korxonalar;

2) tez usuvchi korxonalar.

Odatda kichik korxonalarining kariyib 80-90% o`ta kichik bo`lib, ular o`rish uchun cheklangan imkoniyatlarga ega. Bunday korxonalar xayotni ta'minlovchi korxonalar deb yuritiladi. Ushbu turdagi korxonalariga maslaxat - xizmati ko`rsatuvchi firmalar, tor doirada ixtisoslashgan do`konlar, kafe va shu kabilar kiradi. Ulardagi xodimlar to`liq bo`lmagan ish kuniga ega bo`lib, firma manzillari sifatida tadbirkorlar o`z uylaridan foydalanadilar. Xayotni

ta'minlovchi korxonalar kichik biznes korxonasi bo'lib, uning egasi yetarli turmush darajasini ta'minlash maqsadida tashkil etadi.

Ikkinchi turdagi korxonalar tez o'suvchi korxonalar deb nomlanadi. Ularning bunday nomlanishiga sabab, ularning maqsadi tezrok kichik biznes chegarasidan chiqib rivojlanishdir. Tez o'suvchi korxonalar kichik biznes korxonasi bo'lib, ular tezkor o'sish tendentsiyasiga va qo'yilgan sarmoyaning yuqori qaytmiligiga ega xisoblanadi. Odatda bunday turkum korxonalarga bir necha kishi raxbarlik qiladi. Tez o'suvchi korxonalar yirik investitsiya manbalariga tez yaqinlasha oladilar va buning natijasida keng bozorda yangi tovarlar va xizmatlarni kiritish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Kishilarning moddiy va nomoddiy mahsulotlarga talab ehtiyojlarini uzluksiz ta'minlab borish har bir mamlakatning iqtisodiy qudratiga bevosita bog'liqdir. Iqtisodiyot birlamchi omil bo'lib, iqtisod tabiat in'omlariga kishilar mehnatining qo'shilishi va mehnat qurollarini ta'sirida yaratiladi va ishlab chiqaruvchi kuchlar hosil bo'ladi.

Jamiyatda mehnatni tashkil qilish va ishlab chiqarishni shakllantirish ishlab chiqarish vositalariga mulkchilikning turli shakllari yordamida amalga oshiriladi. Mulchilik shakllari bozor xo'jaligi sharoitiga turli-tuman bo'ladi va ular orasida xususiy mulchilik ustuvor hisoblanadi. Har bir mehnatga layoqatli inson mulkka ega bo'lsa, u ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish bilan mustaqil faoliyat ko'rsata oladi.

Mehnat faoliyati individual yoki jamoa birikmasi shaklida tashkil etilishi mumkin. Umuman mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi sub'ektlarni tadbirkorlar nomi bilan yuritiladi.

Tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi kishilarni guruhlariga ajratish mumkin:

- Yakka tartibda (individual) shaxsan o'zi va oilasi bilan shug'ullanuvchilar;
- Jamoa tarkibida sherikchilik qilib biznes bilan shug'ullanuvchilar;
- Davlat biznesi – davlat nomidan biznes bilan shug'ullanuvchi sub'ektlar.

Individual tadbirkorlikka qo'yidagilar kiradi:

- Yakka tartibda ishlash;
- Kichik korxonalar
- Tomorqa xo'jaligi;
- SHaxsiy yordamchi xo'jalik;
- Fermer xo'jaligi;
- Dehqon xo'jaligi.

Jamoa usulida tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchilar qo'yidagilar:

- Kooperativlar
- SHirkat xo'jaligi
- Aksionerlar jamiyati
- Agrofimlar

Bozor iqtisodiyoti yo'li bilan rivojlanayotgan jahondagi mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, tadbirkorlik faoliyati milliy va ichki bozorlarni tovar mahsulotlari va xizmatlar bilan boyitishda iqtisodiyotning eng muhim sektoriga aylangan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'ziga xos xususiyatlari sifatida:

- ularning bozordagi talibga tez moslashib borishi, sifatli mahsulot ishlab chiqarish qobiliyati;

- nisbatan qisqa muddatlarda aholi ehtiyoji uchun zarur bo'lgan tovar va xizmatlarga bo'lgan talabni qondira olishi;

- qisqa vaqt ichida yangi ishchi o'rinlarini yaratish mumkinligini ko'rsatish mumkin.

Kichik biznesning ijtimoiy jihatlari esa quyidagilardan iborat:

- kishilarning ijtimoiy mavqeini va jamiyatda tarkib topgan milliy an'analarni o'zida mujassamlantirishi;

- milliy an'analarning o'zida saqlab, ularni avloddan-avlodga o'tib borishini ta'minlaydi.

Mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiyalash davrida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratilayotganligi tufayli xususiy kichik korxonalar soni o'sib barmoqda. Masalalan, 2003-2011 yillarda ular soni 2,7 barobar ko'payib 450 mingtaga, hamda ular band bo'lgan ishchi-xizmatchilar soni 7882,8 ming kishiga yetdi. Natijada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi solishtirma salmog'i ancha (35,5%dan 50%ga) o'sdi.

2010 yilda mamlakatimiz bo'yicha kichik korxonalarda aholi bandligining umumiy o'sishi 8,6% ni tashkil qildi. Lekin, mazkur ko'rsatgich respublikamiz mintaqalari o'rtasida katta farqlarga ega. Masalan, kichik tadbirkorlikda aholi bandligi Andijon (162,3%), Namangan (160,3 %) va Xorazm (159,6%) viloyatlari eng yuqori darajada o'sgan. Ayni paytda esa mazkur ko'rsatgich Jizzax viloyati 120,4% ni va Toshkent shahrida 106,5% tashkil etib, respublika umumiy o'rtacha ko'rsatgichidan ham ancha past ekanligi ko'rish mumkin.

Keyingi yillarda tadbirkorlikning barqaror rivojlanishi tufayli ularning mamlakat eksport tarkibidagi salmog'i ancha o'sdi. Masalan, taxlil qilinayotgan yillarda kichik biznesning eksportdagi ulushi 2,1 barobar, yakka tadbirkorlikning ulushi esa 1,5 barobar ortganligi kuzatilgan.

Respublikamizda iqtisodiyotni modernizatsiyalash davrida mintaqalar o'rtasida tadbirkorlikning eksportdagi hajmining o'sish sur'atlarida katta farq mavjudligini ko'rish mumkin. Masalan, Qoraqalpog'istonda kichik tadbirkorlikning eksportdagi hissasi juda tez o'sib 92,4%ni, Sirdaryo viloyatida esa 84,6%ni tashkil etgan. Ammo, Buxora, Namangan va Xorazm viloyatlarida kichik tadbirkorlikning eksportdagi ulushi ayrim sabablarga ko'ra ancha darajada kamaygan.

So'ngi yillarda mamlakatimiz tashqi savdo aloqalarida katta ijobiy holatlar sodir bo'lmoqda. Bunday ijobiy o'zgarishlar mintaqalardagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatida ham yuz bermoqda. Jumladan, kichik biznes sub'ektlari eksport tovar tarkibida energiya va yoqilg'i, rangli metallar, mashinasozlik sanoati tovarlari ulushi birmuncha o'sgan. Mamlakatimizda paxta tolasini qayta ishlashning rivojlanishi tufayli, paxta tolasi eksporti qisqrib, to'qimachilik sanoti tayyor mahsulotlari eksporti ancha o'smoqda. Ammo, import tarkibida oziq-ovqat, tayyor kiyim-kechak, foyabzal buyumlari ulushi hamon salmoqli o'rinni egallaydi.

Kelajakda mintaqalarda tadbirkorlikni qishloq joylarida rivojlantirishga ustivorlik berish, kichik sanoatni qishloq joylariga kiritish qishloq aholisi bandligini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi.

1.2. Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va mehnat resurslaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari

Bozor munosabatlari yo'lini tanlagan har bir davlatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini rivojlantirishda tadbirkorlik eng muhim hamda asosiy omillardan biri bo'lib hisoblanadi.

Jahon amaliyotida xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda, yangi ish o'rinlarini yaratishda va mulkdorlar sinfini shakllantirishda alohida ahamiyatga va yuqori samaradorlikka ega ekanligini tasdiqlamoqda.

Ko'pchilik mamlakatlarda tadbirkorlikning iqtisodiyotda tutgan o'rniga, uning tadbirkorlik rivoji va bozor munosabatlari shakllanishidagi ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilganligi natijasida iqtisodiy va ijtimoiy muammolarning hal etilishiga erishilmoqda.

SHuning uchun ham O'zbekiston o'z mustaqilligining dastlabki davridanoq bu sohaga alohida e'tibor berib, muntazam ravishda islohotlarni amalga oshirib kelmoqda.

“Islohotning asosiy ma'nosi va kerak bo'lsa, negizi-mulkni haqiqiy egasiga topshirish, tadbirkorlikka keng yo'l ochib berishdir,” degan edi Prezidentimiz. SHuning uchun mustaqil O'zbekistonnimizning kelajagi uchun xizmat qiladigan ishbilarmon va tadbirkorlarga o'zlarining faoliyatlarini tashkil qilishda va rivojlantirishda davlatimiz har tomonlama qo'llab-quvvatlab kelmoqda.

Hozirda O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni isloh qilishning ustivor yo'nalishlaridan biri mulkdorlar sinfini vujudga keltirishga yordam beradigan tadbirkorlikni rivojlantirishdir.

Tadbirkorlik jamiyat hayotining barcha ijtimoiy-iqtisodiy sohalariga ta'sir ko'rsatadi. SHu tufayli, O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan tadbirkorlik sub'ektlariga o'z faoliyatlarini bozor tamoyillari asosida amalga oshirish uchun huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy shart-sharoitlar yaratilib berilmoqda.

Mamlakatimizda oxirgi uch yil 2008-2011 yillarda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini tahlil qiladigan bo'lsak quyidagi manzarani ko'rish mumkin.

2008 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada erkinlashtirish va rag'batlantirish bo'yicha ishlar davom ettirildi.

Xususiy mulk va xususiy tadbirkorlik huquqini himoya qilish borasidagi qonunchilikni mutahkamlash, bozor infratuzilmasini shakllantirishga qaratilgan qator ishlar amalga oshirildi.

Biznesni ro'yxatga olish, ixtiyoriy ravishda yopish va tugatish, shuningdek, faoliyatning alohida turlari bilan shug'ullanish huquqini beradigan litsenziya va ruxsatnomalar berish jarayonlari soddalashtirildi va tartibga solindi. Ko'plab belgilanadigan jarimalar miqdori sezilarli darajada kamaytirildi, ayrim jarima turlari esa butunlay bekor qilindi.

Biznes sohasiga davlatning aralashuvini cheklashga qaratilgan ishlar amalga oshirildi, biznes sub'ektlariga nisbatan har qanday sanksiya faqat sud qarori bo'yicha qo'llanishi ustidan monitoring olib borildi.

Moliya, soliq statistika hisoblarining barcha shakllari va muddatlari keskin qisqartirildi. Soliqqa tortish stavkalari unifikatsiya qilindi va kamaytirildi. Xususan, kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi stavkasi 13 foizdan 10 foizga tushirildi.

Tadbirkorlarga, avvalo, kichik biznes subektlariga talab yuqori bo'lgan moddiy resurslardan keng foydalanish imkonini beradigan barqaror bozor mexanizmi shakllandi.

Banklar tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab quvvatlash uchun taqdim etilgan kreditlar bir yilda 36 foizga, tadbirkorlar va xususiy shaxslarga berilgan mikrokreditlar miqdori esa 70 foizga ko'paydi.

Mamlakatimizda 2008 yilning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga nazar solinadigan bo'lsa, jahon moliyaviy inqirozining boshlanib dunyoning deyarli barcha davlatlari iqtisodiyotiga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazib turgan bir sharoitda, halqimizning fidokorona mehnati va davlatimiz rahbariyati tomonidan amalga oshirib borilgan tadbirlar evaziga iqtisodiyotimizning nafaqat barqaror faoliyat ko'rsatishiga balki uning yuqori o'sish sur'atlarini izchil ta'minlashga erishilganini ko'rish mumkin. 2008 yilda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari 9 foizni, sanoatda 12,7 foizni, jumladan, iste'mol tovarlarni ishlab chiqarish 17,7 foizni tashkil etdi, xizmat ko'rsatish hajmi 21,3 foizga, qishloq xo'jaligida 4,5 foizga o'sishga erishildi.

Davlat byudjeti ortig'i bilan bajarilib, ko'zda tutilgan defitsit o'rniga yalpi ichki mahsulotga nisbatan 1,5 foiz, miqdorida profitsitga erishildi.

Pul-kredit siyosatining izchil olib borilishi tufayli inflyatsiyani ko'zda tutilgan prognoz ko'rsatkichlari chegarasida, ya'ni yillik 7,8 foiz darajasida saqlab qolindi. Byudjet tashkilotlarida ish haqi 1,5 baravardan ziyod, butun iqtisodiyot bo'yicha esa 1,4 barobar oshdi.

Jahon inqirozi davom etayotgan sharoitda bunday ijobiy natijalarga erishishda kichik biznes va tadbirkorlikning o'zni benihoyat kattadir.

Kichik biznes sub'ektlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlari hajmi salkam 22 foizni tashkil qildi. Yalpi ichki mahsulotda kichik biznesning ulushi 2008 yildagi 45,5 foizdan 2009 yilda 48,2 foizga o'sganligi, ish bilan band bo'lgan aholining 75 foizidan ko'prog'i aynan shu sohada mehnat qilayotgani, mazkur sohaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni rivojlantirishdagi o'zni nihoyatda salmoqli ekanligini ko'rsatadi.

Kichik biznes sub'ektlari davlatimiz tomonidan ko'rsatilayotgan amaliy yordam tufayli 2009 yilda barqaror rivojlandi. Ular uchun soliq to'lovining yanada kamaytirilishi, mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovining 10 foizdan 8 foizga, 2010 yilda 7 foizga tushirilishi, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalarining kamaytirilishi va ayni paytda uni xisoblash tartiblarining takomillashtirilishi tadbirkorlik, kichik va xususiy biznesni izchil rivojlantirish uchun kuchli rag'batlantiruvchi omil bo'lib xizmat qildi.

SHuni alohida qayd qilish lozimki mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini yanada rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, bandlik muammosini hal qilish aholining daromadlari va farovonligini oshirishda tobora muhim o'rin tutayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga 2010 yil alohida e'tibor berildi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek - Hozirgi kunda kichik biznes sub'ektlari yalpi ichki mahsulotning qariyb 50 foizini ishlab chiqarmoqda. Xolbuki, 2000 yilda bu ko'rsatkich 30 foizni tashkil etgan edi. Bunday natija birinchi navbatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik davlat tomonidan doimiy qo'llab-quvvatlanayotgani samarasidir.

Mamlakatimizni rivojlantirish, yangilash va modernizatsiya qilish bo'yicha tanlagan strategiyamizni va inqirozga qarshi qabul qilgan dasturimizni amalga oshirish natijasida yurtimiz dunyodagi sanoqli davlatlar qatorida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning barqaror sur'atlarini ta'minlash, aholimizning moddiy farovonligini yuksaltirishga erishganligi qayd etiladi.

2010 yilda O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning o'sishi 8,1 foizni tashkil etdi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 9,0 foizga ko'paydi, qishloq xo'jaligidagi o'sish 5,7 foizni tashkil etdi, chakana savdo aylanmasi 16,6 foiz, aholiga pullik xizmat ko'rsatish 12,9 foizga oshdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashning asosiy kredit markazlaridan biri bo'lgan "Mikrokreditbank" ning nizom jamg'armasini ko'paytirishga oid farmoni qabul qilingani ham shu yo'ldagi amaliy qadam bo'ldi. Natijada mamlakatimiz banklarining jami kapitali, qo'shimcha resurslarni jalb qilish hisobidan 2007 yil bilan taqqoslaganda 40 foizga ko'paytirildi, bu ko'rsatkich 2011 yil ikki barobarga oshirildi.

Respublika bo'yicha olganda, xususiy tadbirkorlik milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlarida turlicha rivojlanmoqda. Masalan, qishloq xo'jaligi, qurilish, savdo va umumiy ovqatlanish, xizmat ko'rsatish, transport va aloqa kabi tarmoqlarda tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi sub'ektlar bir necha minglab tashkil etilib, o'z faoliyatini tashkil etmoqda. Ulgurji savdo, umumiy tijorat faoliyati, uy-joy kommunal xo'jaligi, sanoat, kabi tarmoqlarda bunday korxonalar soni nisbatan kamroq. Ammo ilm-fan, boshqaruv, moliya, moddiy texnika ta'minoti, axborot-hisoblash tizimi kabi tarmoqlardagi holatni ijobiy baholab bo'lmaydi. Bu kabi tarmoqlarda sanoqli darajada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari faoliyat ko'rsatmoqda. SHu tufayli bugungi modernizatsiya jarayonlarida *"mamlakatimizning raqobatdoshligini oshirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish jarayonlarini*

chuqurlashtirish siyosatini davom ettirish 2010 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturni amalga oshirishning muhim ustuvor yo'nalishiga aylanishi lozim"¹.

Bu ustuvor vazifalarni amalga oshirishda milliy iqtisodiyotimizning turli tarmoqlaridagi mavjud holat va jarayonlarni yana bir bor tahlil etish, shu bilan birga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini miqdoran ko'payishiga va sifat jihatidan o'zgarishiga erishish imkoniyatlarini yaratish lozim. Bu o'rinda, milliy iqtisodiyotning tarmoqlarini rivojlanganlik darajasini belgilash va undagi salbiy holatlarni bartaraf etish bilan bog'liq sharoitlar yaratmog'imiz darkor. Chunki jamiyatimiz o'z rivojlanishini belgilab borar ekan, "kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini o'tgan yildagi 50 foizdan 2010 yilda 52,4 foizga yetkazish vazifasi qo'yilmoqda"¹. Bu esa iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng joriy etishga olib keladi.

Demak, inqirozga qarshi boshqaruvning zamonaviy jihatlari shundan iborat bo'lmog'i kerakki, bunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tarmoqlar bo'yicha rivojlanishini keng avj oldirishimiz lozim. Buning uchun:

– iqtisodiy va siyosiy jihatdan olib borilayotgan islohotlarga har tomonlama yondashuvni hosil qilish;

– milliy iqtisodiyotni eng kam rivojlangan tarmoqlaridagi mavjud holatni o'rganish;

– rivojlanishi zarur bo'lgan zamonaviy tarmoqlarda korxonalar tashkil etishni tezlashtirish maqsadida tarmoqni boshqarilishi bilan bog'liq me'yoriy hujjatlarni qayta ko'rib chiqish;

– inqirozga qarshi chora-tadbirlarni qo'llab borish mobaynida institutsional islohotlar o'tkazishni yanada kuchaytirishga erishmog'imiz lozim.

Fikrimizcha, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozning salbiy oqibatlari ta'sirlarini bartaraf etishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ahamiyati juda katta. Bu sektorning inqirozli davrlarda shiddat bilan rivojlanishi milliy iqtisodiyotdagi salbiy jarayonlarni kelib chiqishiga yo'l qo'ymaydi.

Taxlillar shuni ko'rsatadiki, bugun davom etayotgan jahon miqyosidagi moliyaviy-iqtisodiy inqirozni oldini olish hammaning fikru-hayolidan o'rin olgan. Bu muammoni hal etish bilan turli soha vakillari jiddiy shug'ullanishmoqda. Xalqaro tashkilotlarning bugungi kun faoliyati ham, shu muammoni hal etishga yo'naltirilgan. SHu bilan birga kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning tarmoqlar kesimida amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni lozim. Bu esa milliy iqtisodiyotimizni har tomonlama yuksalishiga olib keladigan chora-tadbirlardandir.

Mamlakatimiz doirasida 2010 yil inqirozga qarshi choralar dasturiga asosan amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida 940 mingdan ziyod yangi ish o'rinlari yaratildi, ularning 500 mingga yaqini qishloq joylarda, 390 mingdan ziyod kichik biznes sohasiga to'g'ri keladi.

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti kontseptsiyasidan kelib chiqilganda, bandlik siyosati davlatning ijtimoiy siyosatining ajralmas bir qismi ekanligini unutmaslik kerak. Bandlikka nisbatan olganda bunday faol ijtimoiy siyosat faol mehnat bozori sifatida yuzaga chiqadi. Uning asosiy vazifalaridan biri sifatida mehnat bozorini shakllanishiga va faoliyatiga ta'sir etuvchi choralar majmuasidan unumli foydalangan xolda birinchi navbatda yuqori darajadagi va barqaror bandlikka erishish va ushbu darajani ushlab turishga xizmat qiluvchi shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. SHu o'rinda muammo xarakteriga ko'ra va konkret shart-sharoitda namoyon bo'lishiga qarab eng mos keladigan, ta'sirchan mexanizmlarning kompleks

¹ Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. –T.: O'zbekiston, 2010. 59 bet.

¹ Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. –T.: O'zbekiston, 2010. 64 bet.

qo'llanilishi, bevosita va bilvosita, ma'muriy xamda iqtisodiy ta'sir choralarning ishlab chiqilishi va qo'llanishi muhim ahamiyat kasb etadi

Aholining bandligi uning qayta ko'payishi uchun zarur shartdir, chunki kishilarning turmush darajasi, jamiyatning kadrlar tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ishga joylashtirish, ishsizlarni moddiy jihatdan qo'llab quvvatlash uchun sarf qiladigan chiqimlar aholi bandligiga bog'liqdir. Bandlik inson ijtimoiy kamolotining eng muhim tomonlaridan birini ochib beradiki, bu uning mehnat sohasidagi va mehnat bilan bog'liq bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga aloqadordir.

Tadbirkorlik ishsizlikni bartaraf etishning asosiy yo'llaridan biri, yirik va kichik ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi kooperatsiyani, shuningdek, aholi real daromadlarining o'sishining muhim omilidir.

Tadbirkorlikda kasanachilik harakati – bu hunarmandlarning mehnat shartnomalari asosida yollanib o'z uyida, yashash joyida ishlashi va xizmat ko'rsatishi hisoblanadi. Bu harakatni amalga oshirish uchun hunarmandlar va korxonalar (tashkilot)lar o'rtasida shartnomalar tuzilishi kerak. SHuningdek, bu harakat natijasida aholining ayrim guruhlari harakat vakillari bo'lib maydonga chiqadilar va ishlab chiqarishni amalga oshiradilar. Natijada kichik oilaviy tadbirkorlik faoliyati shakllanadi va rivojlanadi. CHunki, bu faoliyat orqali ishsizlikni bartaraf etishda sanoat korxonalarining kasanachilarga zarur xom ashyo va materiallarni yetkazib berish asosida oilaviy pudratni rivojlantirish, fuqarolarga vaqtdan unumli foydalanish, shu bilan birga, past rentabelli va ko'p mehnat talab qiladigan mahsulotlarning ayrim turlarini uy sharoitida ishlab chiqarishni o'zlashtirish imkoniyatini yaratadi, bu o'z navbatida yirik korxonalar ish samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Tadbirkorlikfaoliyatini quyidagicha tasniflash maqsadga muvofiq:

- faoliyat yo'nalishiga ko'ra: tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish;
- faoliyat legalligiga ko'ra: oshkora, legal faoliyat va norasmiy, xufyona faoliyat;
- faoliyat sohasiga ko'ra: tikuvchilik, to'quvchilik, mebelsozlik, kulinariya, xalq hunarmandchiligi, boshqa xizmatlar va hokazo;
- shartnomalar davomiyligiga ko'ra: uzoq muddatli, o'rta muddatli, qisqa muddatli, bir martalik buyurtmalarga asoslangan.

Keyingi vaqtlarda tadbirkorlikda kasanachilik harakatini rivojlantirishga Respublikamiz hukumati tomonidan katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, 2006 yil 5 yanvarda "Yirik sanoat korxonalarini bilan kasanachilikni rivojlantirish asosidagi ishlab chiqarish va xizmatlar o'rtasidagi kooperatsiyani kengaytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni qabul qilindi. Ushbu Farmonning qabul qilinishi bevosita kasanachilik harakatining yanada keng rivojlanishiga sabab bo'ldi va kasanachilarga bir qancha yangi imkoniyatlarni ochib berdi. Buning natijasida esa yirik sanoat korxonalarini bilan kasanachilar o'rtasida kooperatsiya aloqalarining mustahkamlanishi oila byudjeti daromadlarini oshirishdek muhim muammoni hal etadi, shuningdek, ish bilan band bo'lmagan aholi sonini keskin qisqartirish va uning faol qismini ishlab chiqarishga jalb etish imkoniyatini beradi. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan bir katorda xodimlarning ijtimoiy himoyalaniishini ta'minlaydi. Zero, kasanachi xodimlar bilan tegishli mehnat shartnomalari rasmiylashtiriladi, mehnat daftarchalariga zarur yozuvlar kiritiladi, birinchi marta ishga kirgan bu toifalarga xodimlar uchun yangi mehnat daftarchalari tutiladi. 2008 yil mobaynida Respublikamizda kasanachilik hisobidan 97 ming 800 ta¹ yangi ish o'rni yaratildi.

Tarmoqlar bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, kasanachilik mehnatidan foydalanidagan xar ikki ish o'rnidan biri yengil va oziq-ovqat sanoati sohasidagi va xar

¹ Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. -T.:«O'zbekiston», 2009, 15 -b.

uchdan bittasi paxtani qayta ishlash tizimida, barcha ish o'rinlarining tahminan yarmi qishloq joylarda tashkil etilgan. Bunda korxonalar deyarli xarajat qilmagan, lekin ishlab chiqarish ham, odamlar ham manfaatdor bo'lgan. Bundan tashqari kasanachilik uchun ish o'rinlari ochgan korxonalar, shu borada o'zlariga berilgan imtiyozlar hisobidan 1 milliard so'mdan¹ ortiq mablag'ni tejashga erishgan.

Bizning fikrimizcha, yirik sanoat korxonalari bilan tuzilgan mehnat shartnomalari asosida band bo'lganlar bilan oilaviy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchilarning miqdor va sifat ko'rsatkichlarini iqtisodiy-statistik tahlil uchun asos qilib olishda bir qator noqulayliklarga duch kelmaslik uchun quyidagilarni e'tiborga olish lozim.

SHartnomaviy munosabatlarda tomonlarning o'zaro majburiyatlarini ado etish darajasini, chunki tomonlarning biri tomonidan majburiyatning bajarilmasligi shartnomalarning barbod bo'lishiga, shartnomaviy bandlikdan oilaviy tadbirkorlik ko'rinishidagi bandlikka o'tib ketish hollarini yuzaga keltirishi mumkin.

Mehnat shartnomasining amal qilish muddatini, tomonlar o'rtasidagi kelishuvga asosan, shartnoma turlicha muddatlarga yoki bir martalik buyurtmalarni bajarish uchun ketadigan muddatlarga tuzilishi mumkin. Bu muddat tugagandan so'ng tadbirkor oilaviy tadbirkorlik bilan shug'ullanishi yoki hech qanday faoliyat bilan shug'ullanmasligi mumkin.

Fikrimizcha, respublikamiz mintaqalarida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va shu orqali aholi turmush farovonligini ta'minlash uchun quyidagilarga e'tibor berishi zarur:

- faoliyatni rivojlantirishda ilg'or xorijiy tajribalarni (telefon orqali uyda xizmatlar bajarish, advokatlik, dasturiy mahsulotlar yaratish) o'rganish va joriy etish;

- tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga mintaqalarning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib tabaqalashgan holda yondoshish;

- aholi o'rtasida kasanachilik faoliyati, uning afzalliklari, kasanachilikni rivojlantirish bo'yicha hukumatimiz tomonidan berilgan imtiyozlar, yengilliklar to'g'risida keng targ'ibot ishlarini olib borish;

- tadbirkorlik bilan shug'ullanish shartlarini keng tadqiq qilish va omma o'rtasida kasanachilik imidjini oshirish;

- norasmiy faoliyat bilan band bo'lgan "tadbirkorlik"larni rasmiy faoliyatga o'tkazishga imkon beradigan iqtisodiy mexanizmlarni ishlab chiqish;

- o'zgaruvchan bozor sharoitlariga mos yangi tovar va xizmatlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan kasanachilik faoliyati turlarni o'zlashtirish.

Mehnat resurslarining oqilona bandligini ta'minlashni, ishsizlikni kamaytirishni taqozo etadi. Ularni ijobiy hal qilish aholi turmush darajasini oshirishga olib keladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida ta'kidlanganidek, «... mamlakatimiz uchun dolzarb bo'lgan aholi bandligini ta'minlash, shu ta'riqa odamlarning daromadini yanada oshirish va hayot sifatini yuksaltirish masalalarini hal etishni ko'zda tutamiz».²

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 2 fevraldagi 10-son qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi to'g'risida Nizomning vazirlikning asosiy vazifalari va funktsiyalari deb atalgan ikkinchi bo'limida "mehnat bozorini rivojlantirish va boshqarish, aholining bandligi, shu jumladan

¹ Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. -T.:«O'zbekiston», 2009, 21 -b.

² Karimov I.A. "Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir" Toshkent: "O'zbekiston", 2010.-80 b. 73-bet

xorijda ishlashini ta'minlash, demografik omillar va iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari hisobga olgan holda ishga joylashtirishning ilg'or shakllarini joriy etish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni tayyorlash" masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Buning uchun quyidagi demografik va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarining Mehnat bozori tarkibiy qismining asosiy elementlariga quyidagilar kiradi: ishchi kuchiga talab va uning taklifi, qiymati, bahosi va yollashdagi raqobat). Talab ishchi kuchi ehtiyojning hajmi va tarkibini aks ettiradi. Taklif esa ishchi kuchining miqdor va sifat tarkibini ifodalaydi.

Mehnat bozori o'ziga xos xususiyatlariga ega.

Demografik xususiyatlari;

Aholining iqtisodiy faollik darajasi bilan bog'liq xususiyatlar: Ayollarning ijtimoiy roli faollashishi ta'siri ostida ularning ishchi kuchi tarkibiga jadal jalb qilinishi ishchi kuchi taklifining o'sishiga olib keldi.

Aholining umumiy sonidan ikkita yirik guruhlarini ajratish mumkin:

1. yollanib ishlashga qodir mehnatga layoqatli va undan yuqori yoshdagi aholi;
2. yollanib ishlashga qodir bo'lmagan mehnatga layoqatli yoshdan kichik va kattaroq aholi.

Ishchi kuchiga talabni oshirish usuli. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitlarida mulkni xususiyashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish, zarar keltirib ishlayotgan korxonalarni tugatish, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari va intensiv texnologiyalarni joriy etish hisobiga asosan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidan bo'shatilayotgan xodimlar soni tez ko'paymoka.

Ishchi kuchlariga taklifni kamaytirish usuli. Ishchi kuchlariga bo'lgan taklifni kamaytirishga, shuningdek, ularning mehnat bozoriga oqib kelishini qisqartirish va boshqa joyga ketishini rag'batlantirish hamda ish vaqti va mavjud ish joylarini ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lganlar o'rtasida qayta taqsimlash orqali samarali ta'sir etish mumkin.

Respublikamizda ishsizlikning paydo bo'lish sabablariga ko'ra quyidagi asosiy turlari ko'proq uchraydi:

1) yashirin, bu asosan ishlab chiqarishning chuqur tanazzuli sharoitida korxonalarda ortiqcha bandlikning saqlanib qolganligidan dalolat beradi;

2) mavsumiy, ma'lum bir mavsumda ish bilan bandlikni ta'minlovchi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va ularni qayta ishlash va tayyorlash muddati bilan asoslangan. Uni normal ishsizlik jumlasiga kiritish mumkin.

3) texnologik o'zgaruvchan, bu shakli masalan, fan - texnika yutuqlari natijasida qo'l mehnati o'rnini mashina egallashi natijasida yuzaga keladi;

4) tarkibiy, iqtisodiyotning yangi tarmoqlari paydo bo'lishi yoki eskisiga barham berilishi va mulkchilik shakllarining o'zgarishi bilan yuzaga keladi.

Quyidagi tadbirlar ishsizlik tabiiy darajasiga erishishga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin:

- aholini mavjud ish o'rinlari haqida xabardor etishni yaxshilash;
- mutaxassislar tayyorlashni takomillashtirish;
- ishsizlarni davlat tomonidan hamoyalash darajasini kuchaytirish.

Jiddiy muammolar yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida davlat doimiy ravishda fuqarolarni ish bilan ta'minlash darajasini oshirish siyosatini o'tkazadi. Birinchidan, ishsizlikning friksion va tarkibiy turlari o'sganda:

- qaytadan kasb o'rgatadi; ta'lim berish tizimini kengaytiradi; bo'sh ish joylari haqidagi axborotlarni keng tarqatadi;
- Ikkinchidan, agar ishsizlik davriy xususiyat kasb etsa, davlat byudjet pul vositalarini ishga soladi.

Uchinchidan, davlat mehnat bozorini tashkil etish va tartibga solish:

- ishlab chiqarishning hajmi va tarkibiga hamda uning o'sish sur'atiga;

Ishsizlikni kamaytirishning iqtisodiy tadbirlaridan eng asosiysi iqtisodiyot tarmoqlarida bozor talabiga muvofiq kichik korxonalarni barpo etishdir. Bu esa ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish miqyosini oshirishga qaratilgan bo'lishi darkor.

SHu asosda O'zbekiston mehnat bozori rivojlanishi va istiqboli quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

Mehnat bozori rivojlanishining dastlabki bosqichida (1991-2000 y.y.) quyidagi vazifalar bajarilgan: mehnat bandlik xizmatining boshlangich tashkilotlari tashkil qilib, ular ishsizlik va bo'sh o'rinlar miqdori va tuzilishining hisob-kitobi, tahlili va prognozi, band bo'lmagan aholini ishga joylashtirish va qayta o'qitish, bandlikka ko'maklashish jamg'armasini tashkil qilish va sarflash bilan shug'ullandilar

Ushbu bosqichning yakuniy natijasi – mehnat bozorini shakllantirish uchun ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratildi.

Rivojlanish bosqichida (2001-2011y.y.) quyidagi vazifalarni bajarish belgilanadi: mahalliy investitsiyalar va xorijiy kreditlarni jalb qilish asosida qishloq xo'jaligi bo'lmagan yangi ish joylarini yaratish yo'li bilan ishchi kuchiga talabni oshirish; mehnatga layoqatli o'smirlar, ko'p bolalik ayollar, pensionerlar va nogironlar uchun kvotalangan ish joylarini tashkil qilish va ular iqtisodiy rag'batlantirilishi oshirish; ish haqi va boshqa mehnat daromadlarining manbalari darajasidan soliq stavkasini keskin kamaytirish; Bularning hammasi bandlikni sezilarli o'sishi va ishsizlikning kamayishi hamda ishchi kuchiga talab va uning taklifi o'rtasidagi farqqisqarishga ko'maklashadi.

Istiqbol bosqichida (2012-2020y.y.) quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutiladi: ishchi kuchiga talab oshishi va uning taklifi kamayishiga yo'naltirilgan tadbirlarni amalga oshirishni kuchaytirish; bandlik xizmati va bu xizmat infratuzilmasi qudratli va tez rivojlanuvchi tizimini yaratish; oqilona bandlikni shakllantirish; ishsizlikni yo'l qo'yiladigan darajasigacha qisqartirish. Mazkur bozor rivojlanishining keyingi bosqichida ishchi kuchi talab va taklifi o'rtasidagi bozor muvozanatiga erishish mumkin.

Bularning hammasi mehnat bozori samarali rivojlanishiga yo'naltirilgan ishchi kuchiga talabning oshishi va uning taklifi kamayishi bo'yicha iqtisodiy, ijtimoiy va tashkiliy tadbirlar majmuasini ishlab chiqish zarurligini taqozo etadi.

Mustaqil ish bilan bandlik va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish. Hozirgi vaqtda mehnat bozoridagi faol siyosatni amalga oshirish sohasidagi faoliyat doirasida mustaqil ish bilan bandlikni rivojlantirish, tadbirkorlik malakalarini o'rgatish va tadbirkorlikni tashkil etishga ko'maklashish dasturlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi chora-tadbirlarni amalga oshirish joylarda tadbirkorlik faoliyatining yanada rivojlanishiga, ishsizlikni kamayishi, aholi bandligini va aholi turmush farovonligining oshishiga olib keladi.

1.3. Tadbirkorlikni rivojlantirishda investitsiya muhitining ahamiyati

Jahon moliyaviy va iqtisodiy inqirozi kechayotgan bir sharoitda mamlakatimizda tadbirkorlik sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni amalga oshirish jarayonida qulay investitsiya muhitining yaratilganligi asosiy omil bulib e'tirof etilmoqda. Investitsiya muhiti, mamlakatimizdagi investitsiya jarayonlariga ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa shart-sharoitlar majmuasiga bog'liq. Bugungi sharoitda investitsiya muhiti mamlakatning tabiiy shart-sharoitlari, shu jumladan foydali qazilma zahiralari, ishchi kuchi malakasi va o'rtacha ish haqi darajasi, ichki bozor sig'imi hamda tovarlarni tashqi bozarda sotish imkoniyatlari, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi, xorijiy

kapitalga nisbatan davlat siyosati, unga nisbatan imtiyozli shart-sharoitlarning mavjudligi va hokazo kabi iqtisodiy omillarga bog'liq.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan va bugungi kunda ham investitsiya muhitini yaratish davlatimiz iqtisodiy siyosatining asosiylardan sanaladi. Investitsiya jarayonlarini kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida mamlakatimizda investitsiya hajmi sezilarli darajada ortdi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi o'sib, uning investitsiyalar tarkibidagi ulushi oshdi. Barcha o'zlashtirilgan investitsiyalarning 50 foiziga yaqini ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlashga ajratilganligi alohida ahamiyatga ega ishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Yurtimizda o'tkazilayotgan iqtisodiy siyosat jahon iqtisodiy hamjamiyatiga integratsiya jarayonining faqat davlatning tarkibiy tuzilishi bo'yicha emas, balki xususiy sektor darajasida ya'ni tadbirkolikni ham jadallashuvini nazarda tutadi. Erkin bozorning faoliyat ko'rsatishi uchun yaratilayotgan sharoit G'arb va SHarq tadbirkorlarining mamlakatimizga barqaror qiziqishini uyg'otmoqda. Bugungi kunda bizning tadbirkorlarimiz ham xorijiy investorlarni hamkorlikka jadal jalb etmoqda.

Ayni vaqtda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar barpo etish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga olmoqda: korxonani tashkil etish sabablarini inobatga olish; ishonchli sherik tanlash; xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonani barpo etish haqida qaror qabul qilish.

Tadbirkolik asosida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonani tashkil etish sabablarining asosan uch turkumini ajratib ko'rsatish mumkin. Bular ichki, tashqi va strategik sabablardir.

Ichki sabablar tarkibi quyidagilardan iborat: yaratilgan investitsiya muhitidan foydalanish; boshqaruvning yangi usullarini o'zlashtirish; zamonaviy va eng qulay tartibga erishish; mahalliy ishchi kuchi resurslaridan samarali foydalanishni kengaytirish; xorij bozoriga kirib borishni tezlashtirish; ijtimoiy, madaniy va siyosiy bilimlarni kengaytirish; xodimlar malakasini oshirish.

Tashqi sabablar tarkibi quyidagicha: jahon bozoriga chiqish; sog'lom va samarali raqobat muhiti; xorijiy iqtisodiy aloqalarning yaxshiligi; mahalliy xokimiyatning talablari.

Strategik sabablar tarkibi quyidagilardan iborat: mamlakatda zamonaviy ish yuritish usullaridan foydalanish imkoniyati; mustahkam xomashyo bazasiga ega bo'lish; texnologiyalar transferti; ishlab chiqarishni kengaytirish¹.

Ma'lumki, o'tgan 2011 yilda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash hamda zamonaviy, yuksak texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishni tashkil etishni tezlashtirish borasida O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'lini o'zida mujassam etgan O'zbek modelining eng muhim tamoyillaridan biri bo'lgan davlatning bosh islohotchi ekani haqidagi printsipdan kelib chiqib, davlat tomonidan oqilona, faol investitsiya siyosati olib borildi. Buni o'zlashtirilgan kapital qo'yilmalar miqdoridan ham bilib olish mumkin. Raqamlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2011 yilda moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan qiymati 10 milliard 800 million dollardan ortiq kapital qo'yilmalar o'zlashtirildi, bu 2010 yilga nisbatan 11,2 foiz ko'p demakdir². Iqtisodiyotimizga kiritilayotgan investitsiyalarning yildan-yilga o'sib borishida yurtimizdagi mavjud investitsion sharoit va qulay investitsiya muhiti alohida ahamiyat kasb etayotganini ta'kidlash joiz. Bunda ayniqsa quyidagi asosiy omillarni ham qayd etish o'rinlidir:

¹ Mahmudov N.M, Madjidov SH.A. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2010. – 89-90-b.

² Islom Karimov. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. T.: O'zbekiston, 2012 y., 11-bet.

1. Siyosiy barqarorlik. Davlat tomonidan barcha ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda olib borilayotgan tizimli islohotlar va O'zbekistonda istiqomat qilayotgan 100 dan ortiq millat va elat vakillari uchun yaratib berilayotgan teng imkoniyatlar, har bir shaxs, har qaysi xo'jalik yurituvchi sub'ektga o'z imkoniyatlarini to'laqonli namoyish etishi uchun barcha sharoitlarning mavjudligi.

2. Milliy iqtisodiyotning barqaror sur'atlarda rivojlanib borayotgani. O'zbekiston o'z mustaqilligining dastlabki yillarida bozor iqtisodiyotiga o'tishning dunyoda o'zbek modeli sifatida tan olingan o'ziga xos yo'lini tanlab, uni izchil amalga oshirishi natijasida MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi) hududidagi ko'pgina davlatlardan farqli ravishda ishlab chiqarish va aholi turmush darajasining keskin pasayib, davlatning ichki va tashqi qarzlari haddan ziyod oshib ketishiga yo'l qo'yilmaslikka erishdi. O'zbekiston iqtisodiyoti 1997-2003 yillar davomida yiliga 3,8-5,2 foiz o'sish sur'atlari bilan rivojlandi. Qulay ishchan muhit yaratish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga qaratilgan iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayonlarining natijasi sifatida mamlakatimiz iqtisodiyoti 2004 yildan e'tiboran yiliga 7-9 foiz darajasidagi yuqori va barqaror o'sish sur'atlarini namoyish qila boshladi¹. Ayni paytda jahonni larzaga solgan, ko'plab mamlakatlar iqtisodiyotiga katta talofatlar yetkazib, izdan chiqargan global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz jarayonlarining murakkab va og'ir sinovlaridan o'tayotgan mamlakatimizning o'ziga xos taraqqiyot yo'li islohotlarni davom ettirish va chuqurlashtirish orqali yanada samarali va mustahkam bo'lib bormoqda.

3. Geografik va geosiyosiy joylashuvi. O'zbekiston Markaziy Osiyoning chorrahasida joylashgan bo'lib, samarali mintaqaviy hamkorlik aloqalarini o'rnatish, mintaqaviy va transmilliy loyihalarda ishtirok etish uchun qulay transport koridorlariga ega mamlakatdir².

4. Rivojlangan infratuzilmaning mavjudligi. Mamlakatimizda transport infratuzilmasining muhim tarkibiy qismi bo'lmish temir yo'llar, avtomobil yo'llar hamda havo yo'llari yaxshi rivojlangan. Temir yo'llarimizning uzunligi 6,5 ming kilometr, avtomobil yo'llarimizning uzunligi 43,5 ming kilometrga teng. Milliy aviakompaniyamiz tomonidan muntazam ravishda dunyoning 40 dan oshiq shaharlariga to'g'ridan-to'g'ri reyslar amalga oshiriladi, shuningdek, jahonning 24 ta davlatida uning 43 dan oshiq vakolatxonasi bor. Respublikamizda yiliga 48 milliard kilovat soat elektr energiyasi va 10 million kilokalloriya issiqlik energiyasi ishlab chiqariladi. Bu nafaqat ichki ehtiyojimizni to'la ta'minlash, balki xorijga eksport qilishimiz uchun ham imkon yaratadi.

5. Qulay soliq va bojxona siyosati. O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar uchun investorlarga qator imtiyoz va preferentsiyalar yaratilgan va ularning kafolati qonun bilan mutahkamlab qo'yilgan. Xususan, ular mulk solig'idan, tadbirkorlik faoliyatidan olinayotgan daromad solig'idan hamda bir qator bojxona bojlarini to'lashdan ozod etilgan.

6. Yuksak salohiyatga ega ishchi kuchining mavjudligi. O'zbekiston yuqori salohiyatga ega bo'lgan mutaxassis kadrlarga ega bo'lib, yurtimizda aholi savodxonligi darajasi 100 foizni tashkil etadi. Mamlakatimizda har to'rt kishidan biri oliy yoki o'rta maxsus ma'lumotga egadir. Birgina ta'lim sohasini oladigan bo'lsak, mamlakatimizda o'z mazmun va mohiyatiga ko'ra noyob bo'lgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Ushbu dastur o'n ikki yillik yaxlit majburiy uzluksiz ta'lim tizimiga o'tish hamda ta'lim jarayonlarining sifatini tubdan va tizimli ravishda oshirishga, kadrlarning yuksak darajadagi

¹ O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendentsiya va ko'rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo'ljallangan prognozlar: statistik to'plam. – T.: "O'zbekiston", 2011. – 13-b.

² Yuldashev R.Z. Investitsionnoe obespechenie privatizirovannykh predpriyatiy v Uzbekistane: upravlencheskiy aspekt. Monografiya. – T.: Iktisodiyot, 2009. – 93 s.

umumiy va kasbiy madaniyatga ega bo'lgan yangi avlodini tarbiyalashga qaratilgan maxsus chora-tadbirlarni amalga oshirish imkonini berdi. Aholining turmush sharoitini oshirish, bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish, salomatligini mustahkamlash, ishchi kuchi sifatida ijtimoiy foydali mehnatda ishtirok etish salohiyatini yuksaltirish davlatimiz ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi. SHu ma'noda, yurtimizda aholi muhofazasini ta'minlashdagi birinchi va asosiy vazifa insonni kamol toptirish, uning oila va jamiyatdagi o'rnini hamda nufuzini ko'tarish bilan bog'liq. Binobarin, jamiyatning insonparvarligi mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatining qanchalik yuksakligi bilangina emas, balki bu salohiyat har bir kishining farovon yashashi va har tomonlama rivojlanishi uchun yo'naltirilgani bilan ham baholanadi.

Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotni diversifikatsiya etish, iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatdoshligini oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish hamda mahalliy ishlab chiqarish korxonalarining eksportdagi hajmini kengaytirishga qaratilgan investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi 50 dan ortiq huquqiy-hujjat qabul qilindi, jumladan, "Kontsessiyalar to'g'risida"gi, "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi, "CHet el investitsiyalari to'g'risida"gi, "CHet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi 30.04.1998 yildagi Qonuni; "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi, "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi Qonunlar ayni shu maqsadga xizmat qilmoqda.

Yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan yuksak texnologiyalar asosidagi mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirishda jahondagi eng yirik va mashhur AQSHning "Jeneral Motors", "Teksako", Germaniyaning "MAN", "Daymler Bents", "Klaas", Buyuk Britaniyaning "BAT", Ispaniyaning "Maksam", Yaponiyaning "Isuzu", "Itochu", Malayziyaning "Petronas", Koreyaning "Korean Eyr", "CNOOC", "LG", Xitoyning "CNPC", Rossiyaning "Lukoil", "Gazprom" kabi kompaniyalari, Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Islom taraqqiyot banki singari yirik xalqaro moliya tashkilotlari, Janubiy Koreya, Yaponiya, Xitoy va bir qator arab davlatlarining investitsiya banklari mamlakatimizning asosiy hamkorlari bo'lmoqda.

Prezidentimizning mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi hamda 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yil O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan ma'ruzasida Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligini ta'minlash maqsadida chet el investitsiyalarini jalb etishga strategik ustuvor vazifa sifatida qaralib, mazkur masala davlat iqtisodiy siyosatining muhim yo'nalishi etib belgilangan.

Hukumatimiz tomonidan qulay investitsiya siyosatini olib borish maqsadida quyidagi tamoyillarga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda: tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish; respublika iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri kapital qo'yilmalarning keng jalb qilinishini ta'minlovchi huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa sharoitlarni yanada takomillashtirish; yurtimizga jahon darajasidagi texnologiyalarni olib kiruvchi, milliy xo'jalikning zamonaviy tuzilmasini tashkil etishga ko'maklashuvchi chet el investorlariga nisbatan qulay sharoitlar yaratish siyosatini izchil olib borish; eng muhim ustuvor yo'nalishlarga mablag'larni yo'naltirish¹. Bundan ko'rinadiki, korxonalarni texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, zamon talablariga mos bo'lgan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va ayniqsa, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining keyingi to'lqinlari zarbasiga ijtimoiy-iqtisodiy talofatlarsiz bardosh berish, ularning salbiy oqibatlarini bartaraf etish bilan bog'liq masalalarni hal etishda kompleks yondashuvlarga urg'u berilmoqda. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, "... jahon zaxira

¹ Sobirov A. O'zbekiston Respublikasiga xorijlik investorlarni jalb qilish shakllari. /Iqtisodiyot va ta'lim, 2011 y., 5-son.

valyutalarining beqarorligi, moliya-bank tizimi kredit qobiliyatining keskin pasayishi va investitsiyaviy faollikning susayishi bilan bog'liq murakkab muammolar ko'plab davlatlar iqtisodiyotning tiklanish va o'sish sur'atlariga ta'sir ko'rsatmoqda"¹.

2011 yil holatiga ko'ra, xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi korxonalar soni jami 4575 tani, shundan faoliyat olib borayotgan korxonalar soni 4203 tani tashkil etgan. Faoliyat olib borayotgan qo'shma korxonalarining 1600 tasi tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanayotgan korxonalar hisoblanadi.

Bunda ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish, yangi ish o'rinlari yaratish va shu asosda mamlakat iqtisodiyotining barqaror va bir maromda rivojlanishini ta'minlash imkoniyati yaratiladi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, chet el investitsiyasi jalb qilinishi yuksak darajada taraqqiy etishning hal qiluvchi omillaridan biri bo'lgan. Ammo yana bir haqiqat mavjudki, chet el investitsiyalarini keragidan ortiq jalb etish ham mamlakatga iqtisodiy va siyosiy muammolarni olib kelishi mumkin.

Mamlakatimizda investitsiya muhitining barqarorligi va investitsion jozibadorlikning to'g'ri yo'lga qo'yilgani ham xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi uchun zamin bo'lmoqda. Investitsiya faolligini kuchaytirish qishloq tadbirkorlik muammolarni hal qilishning muhim omili va shart – sharoitlaridan biridir. Jahon miqyosida sodir bo'layotgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz butun dunyo mamlakatlarini qamrab olganligi va juda ko'p mamlakatlar iqtisodiyotiga jiddiy salbiy ta'sir etganligi bugungi kunda hammamizga ma'lum.

Jahon miqyosida ro'y bergan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz dunyoning aksariyat davlatlari iqtisodiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatar ekan, har bir mamlakatda ko'rilayotgan zarar darajasi va ko'lami, eng avvalo shu davlatning moliyaviy-iqtisodiy va bank tizimidagi mexanizm faoliyatiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatdi. Bu esa o'z navbatida ichki va tashqi muhitdagi iqtisodiy munosabatlarni boshqarishda nomuvofiq jarayonlarni keltirib chiqardi. Tashqi bozordagi kon'yunkturani yomonlashuvi esa bu jarayonlarni kuchaytirdi.

Biroq, Respublika bo'yicha olganda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlarida turlicha rivojlanmoqda. Masalan, qishloq xo'jaligi, qurilish, savdo va umumiy ovqatlanish, xizmat ko'rsatish, transport va aloqa kabi tarmoqlarda tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi sub'ektlar bir necha minglab tashkil etilib, o'z faoliyatini tashkil etmoqda. Ulgurji savdo, umumiy tijorat faoliyati, uy-joy kommunal xo'jaligi, sanoat, kabi tarmoqlarda bunday korxonalar soni nisbatan kamroq. Ammo ilm-fan, boshqaruv, moliya, moddiy texnika ta'minoti, axborot-hisoblash tizimi kabi tarmoqlardagi holatni ijobiy baholab bo'lmaydi. Bu kabi tarmoqlarda sanoqli darajada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari faoliyat ko'rsatmoqda.

Bu ustuvor vazifalarni amalga oshirishda milliy iqtisodiyotimizning turli tarmoqlaridagi mavjud holat va jarayonlarni yana bir bor tahlil etish, shu bilan birga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini miqdoran ko'payishiga va sifat jihatidan o'zgarishiga erishish imkoniyatlarini yaratish lozim. Bu o'rinda, milliy iqtisodiyotning tarmoqlarini rivojlanganlik darajasini belgilash va undagi salbiy holatlarni bartaraf etish bilan bog'liq sharoitlar yaratmog'imiz darkor. Bu esa iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng joriy etishga olib keladi.

Demak, inqirozga qarshi boshqaruvning zamonaviy jihatlari shundan iborat bo'lmog'i kerakki, bunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tarmoqlar bo'yicha rivojlanishini keng avj oldirishimiz lozim. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozning salbiy oqibatlari ta'sirlarini bartaraf etishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ahamiyati juda katta. Bu sektorning inqirozli davrlarda shiddat bilan rivojlanishi milliy iqtisodiyotdagi salbiy jarayonlarni kelib

¹ Islom Karimov. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. T.: O'zbekiston, 2012 yil, 4-bet.

chiqishiga yo'l qo'ymaydi. Buning uchun tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy omillaridan biri bo'lgan investitsiya muhiti sharoitlarini yanada rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Keyingi yillarda mamlakatimiz iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar hajmining barqaror o'sib borishi e'tiborga sazovor masalalardan hisoblanadi. Eng muhimi, xorijiy investitsiyalarning 74 % dan ko'prog'i to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar ulushiga to'g'ri keldi.

O'zbekiston Respublikasi vazirlar Mahkamasining davlat mulkini xususiylashtirishda xorijiy sarmoyalarni jalb qilishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori qabul qilingach xorijiy investitsiyalar kiritish uchun yanada keng imkoniyatlar yaratildi.

SHu bilan bir qatorda respublikamiz iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi qator muammolar borki, ularning ayrimlari ustida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir:

Iqtisodiy qonunlardan ma'lumki, moddiy texnika va xom-ashyo resurslarining cheklangan bir paytda odamlarning ehtiyojlari o'sib bormoqda.

Respublikamiz aholisining 50 foizga yaqini qishloq joylarda yashashi sababli asosiy e'tibor shu joylarda mahsulotlarni qayta ishlovchi raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqaruvchi kichik korxonalar tashkil etishga qaratilmoqda.

Bugungi kunda xorijiy sarmoyalarni keng ko'lamda jalb qilish iqtisodiyotimizni rivojlanishining muhim shartidir.

Hozirgi paytda mamlakatimizga turli mamlakatlar tomonidan jalb qilinayotgan sarmoyalarni quyidagi turlarga ajratishimiz mumkin:

1. Xalqaro moliya tashkilotlarining investitsiyalari
2. Xalqaro banklarning investitsiyalari
3. CHet mamlakatlar hukumati ajratgan investitsiya mablag'lari
4. Mamlakatlararo investitsiyalar

O'zbekistonga sarmoyalar dunyodagi turli qit'a mamlakatlari va xalqaro banklar tomonidan qo'yilmoqda.

Mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlanishi va ular faoliyatini amalga oshirishda qulay investitsiya muhitining yaratilganligi asosiy omil bo'lib kelmoqda.

Inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirishda investitsiyalarni jalb etish, avvalo ichki manbalarni safarbar etish hisobidan iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlarini jadal modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, transport kommunikatsiyalashni yanada rivojlantirish va ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini barpo etish hal qiluvchi ustuvor yo'nalishga aylandi.

Investitsiya siyosatidagi bu kabi tarkibiy o'zgarishlar nafaqat tarmoqlardagi moliyaviy-iqtisodiy holatni yaxshilash, modernizatsiyalash, balki, yaxlit mintaqa xo'jalik tizimi raqobatbardoshligini oshirishga olib kelishi shubhasiz.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlash lozimki, olib borilayotgan investitsiya siyosati mamlakat iqtisodiyotining samarali rivojlanishida investitsiyalar ahamiyatini benihoya orttirmoqda. Ularni mintaqa iqtisodiyotiga jalb etish hamda samarali foydalanish bo'yicha mavjud muammolarni hal etish, tadbirkorlikni yanada rivojlanishiga, mamlakatda ishsizlikning oldini olish va ishsizlarni kamaytirishga, shuningdek, iqtisodiyotni modernizatsiyalash orqali uning raqobatbardoshligini oshirishga imkon beradi.

II BOB. ANDIJON VILOYATIDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA MEHNAT RESURLARIDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY AHAMIYATI VA MUAMMOLARI

2.1. Andijon viloyati iqtisodiy salohiyatini geografik tahlili

Andijon viloyati O'zbekiston Respublikasining maydoni eng kichik, biroq aholisi eng ko'p bo'lgan mintaqalaridan biri Andijon viloyati 1941 yilda tashkil topgan. O'tgan asrning 60 - yillarida u qo'shni Namangan viloyati bilan birlashib, Andijon viloyati nomida mavjud bo'lgan va so'ngra yana avvalgi rasmiy maqomi va hududi qayta tiklangan.

Viloyat maydoni 4,30 ming kv km va bu nuqtai nazardan u mamlakatimizda Sirdaryo viloyatidan (4,28 ming kv km) oldinda turadi, xolos. Atigi 0,96 foiz respublika maydonini egallagan ushbu hududda 2530,3 ming kishi yoki mamlakat jami aholisining 9,0 foizi yashaydi. O'zining demografik salohiyatiga ko'ra O'zbekistonda u Samarqand, Farg'ona, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlaridan keyingi 5 - o'rinda turadi.

Viloyat hududi va aholisi nisbiy ko'rsatkichlarini taqqoslashning o'zi mintaqa ijtimoiy - iqtisodiy vaziyatining asosiy xususiyatlarini yaqqol namoyon qiladi. Bunda, eng avvalo, viloyat demografik sig'iminining juda yuqoriligi, aholining o'ta zich joylashuvi, yer resurslarining tanqisligi ko'zga tashlanadi. Aynan ana shunday vaziyat uning ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanish strategik yo'nalishlarini belgilab olishni taqozo etadi.

Viloyat ning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, bu yerda qishloq tumanlari "zich" va maydoni deyarli bir tekis taqsimlangan. Viloyatda har bir tumanga atigi 0,31 ming kv. kmdan maydon to'g'ri keladi (2.1.1 – jadval) . Bu mamlakatimiz bo'yicha eng oz ko'rsatkichdir. Bu yerda koeffitsient 2,61 ga teng. kichik

Andijon viloyati tumanlari maydoni va aholisi haqida ma'lumotlar

t/r	Tumanlari	Maydoni, ming kv. km	Aholisi, ming kishi	Aholi zichligi, 1 kv. km kishi
1	Andijon	0,37	206,4	557,8
2	Asaka	0,26	199,3	766,5
3	Baliqchi	0,34	156,8	461,2
4	Buloqbohi	0,18	114,5	636,1
5	Bo'z	0,20	56,5	198,2
6	Jalolquduq	0,37	152,1	411,1
7	Izboskan	0,28	193,2	690,0
8	Marhamat	0,32	138,7	433,4
9	Oltinko'l	0,21	140,3	677,6
10	Paxtaobod	0,26	153,3	589,6
11	Ulug'nor	0,42	49,8	118,6
12	Xo'jaobod	0,23	90,2	392,2
13	SHahrixon	0,29	236,5	815,5
14	Qo'rg'ontepa	0,47	170,1	361,9
	Viloyat jami	4,30	2530,3	588,4

Jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, eng katta tuman - Qo'rg'ontepa eng kichik tuman - Buloqboshidan 2,6 marta katta, vaholanki, bunday hududiy tafovutlar boshqa mintaqalarda, hatto qo'shni Namangan va Farg'ona viloyatlarida ham sezilarli darajada ko'proq.

Uncha katta maydonga ega bo'lmagan viloyat respublika hududiy mehnat taqsimotida, milliy iqtisodiyotning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. U mamlakatimizning 6,7 foiz yalpi ichki mahsulotini, 12,7 % sanoat va 9,7 foiz qishloq xo'jalik mahsulotini ta'minlaydi. Viloyatning xo'jaligi industrial-agrar yo'nalishga ega bo'lib, u eng avvalo, mashinasozlik (avtomobilsozlik), to'qimachilik sanoat tarmoqlariga, paxta va pilla yetishtirishga ixtisoslashgan.

Viloyat hududi Farg'ona iqtisodiy rayoni va O'zbekiston Respublikasining chekka sharqida joylashgan. U Qirg'iziston Respublikasining Jalolobod hamda O'sh viloyatlari bilan chegaradosh. Respublikamiz doirasida esa Andijon viloyati janubi- g'arbda Farg'ona va shimoli-g'arbda Namangan viloyatlari bilan qo'shni.

Er usti tuzilishi balandlik, adir va tekisliklardan iborat, eng baland nuqtalari janub va chekka sharqda – Xo'jaobod va Qo'rg'ontepa tumanlarida joylashgan (1350 - 1550 m.). Andijon guruh rayonlarini viloyatning janubi - sharqda joylashgan hududlaridan 800 - 900 metr balandlikdagi adir zonasi ajratib turadi. SHu adirning (Teshiktosh adirlari) janubiy qismida Polvontosh, Andijon, Janubiy Olamushuk kabi uncha katta bo'lmagan neft konlari mavjud. Biroq ta'kidlash lozimki, viloyatda boshqa qazilma boyliklar deyarli yo'q darajada. Faqat qurilish materiallari sanoati-g'isht ishlab chiqarish uchun xom - ashyolar mavjud, xolos. Viloyatning g'arbiy va shimoliy - g'arbiy, nisbatan yangi o'zlashtirilayotgan hududlarining balandligi 400 - 420 m. Bu ikki orografik shakllar o'rtasida qishloq xo'jaligi va aholi joylashuvi uchun nihoyatda qulay bo'lgan pasttekislik bor.

Asosiy gidrografik elementlari Qoradaryo va uning o'ng irmoqlari - Moylisuv va Tentaksoydan iborat. Ulardan tashqari, viloyat xo'jaligi va aholisini hududiy tashkil etishda Oqbo'ra hamda Aravansoy daryolarining ham ahamiyati bor. Chekka janubi - sharqda Qirg'iziston hududiga tutash joyda Andijon suv ombori va 100 ming kVt quvvatga ega bo'lgan Andijon GES qurilgan. Viloyat hududida Janubiy Andijon, Usmon Yusupov nomidagi Katta Farg'ona, Janubiy Farg'ona kanallari mavjud. SHunday qilib, Andijon viloyatida qazilma boyliklar oz, suv zahiralari esa birmuncha ko'p. Aynan ana shu agroiklimiy imkoniyatlar bu yerda qadimdan sug'orma dehqonchilik va shu asosda xo'jalikning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga sabab bo'lgan. Sug'orma dehqonchilikda yuqoridagi asosiy irrigatsiya infratuzilmalaridan tashqari nisbatan kichikroq suv omborlari, kanal va ariqlar ham katta ahamiyatga ega. Ular jumlasiga Asaka, Otchopar suv omborlari, Norin chapqirg'oq, Ulug'nor, Ozod, Ko'tarma, Xalqobod, Kishkish, Xo'jaqatortol, Yangiariq kabi kanal va ariqlar kiradi. Qoradaryodan boshlangan SHahrixonsoy va Andijonsoy shu nomli shahar va tumanlarga o'z suvlarini yetkazadi.

Ko'rinib turibdiki, viloyatda su'niy va tabiiy gidrografik shahobchalar juda ko'p va zich. Binobarin, Andijon viloyati ham Farg'ona yoki Xorazm viloyatlaridek kanal va ariqlar ko'p bo'lgan mintaqa hisoblanadi. Asosiy daryo - Qoradaryoning, umuman Sirdaryo singari, O'zbekistonning Farg'ona vodiysi qismida bevosita yerlarni sug'orishda ahamiyati deyarli yo'q. Aksariyat daryolar transc chegaraviy xususiyatga ega bo'lib, ularning bosh to'yinish va boshlanishi qo'shni Qirg'iziston hududida joylashgan. Eng katta Andijon suv omborining asosiy qismi ham shu mamlakat doirasiga to'g'ri keladi. Binobarin, suv muammosi, suv masalasini xalqaro tartib - qoidalar, me'yorlar asosida hal qilish muhim iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy ahamiyatga ega.

Melioratsiya tizimi ham viloyatda ancha rivojlangan. Uning "quyi" qismida, ko'proq yangi o'zlashtirilgan hududlarda, masalan Ulug'nor, Bo'z tumanlarida qator kollektor va zovurlar qazilgan (Zovur, Yozyovon, Sariqsuv, SHerqo'rg'on, Sarijo'ga, SHaxrixon, Qoraguna tashlamasi, Mazgilsoy va b.).

Andijon viloyati xo'jaligi, avval e'tirof etilganidek, industrial - agrar yo'nalishga ega. Bu turdagi mintaqalar mamlakatimiz iqtisodiy makonida uncha ko'p emas. Viloyat yalpi hududiy mahsulotining 26,7 foizini sanoat, deyarli shunchasini qishloq xo'jaligi ta'minlaydi; transport va

aloqaning ulushi 6,5 %, savdo va umumiy ovqatlanishniki 6,3 %, qurilishniki - 4,5 % va h.k (2011 y.).

Agar yuqoridagi raqamlar aholining bandlik tarkibi bilan taqqoslangan, xo'jalik tarmoqlarining iqtisodiy samaradorligi va mehnat unumdorligi haqida ma'lum tasavvurlarga ega bo'lish mumkin. Masalan, sanoatda band bo'lgan 12,0 % aholi YaHM ning 2 barobaridan ko'prog'ini yaratadi, agrar sohada, aksincha, 38,9 foiz ishlovchilar undan kam, ya'ni 26,4 foiz mahsulot ishlab chiqaradi. Transport va aloqada bu nisbat 2,4 va 6,5 %, qurilishda 5,3 va 4,5 %, savdo va umumiy ovqatlanishda 7,8 va 6,3 foizga teng. Demak, iqtisodiyot tarmoqlari orasida sanoat, transport va aloqada mehnat unumdorligi yuqoriroq.

Viloyatda aholi jon boshiga 1275 ming so'mlik yalpi hududiy mahsulot to'g'ri keladi, xalq iste'mol mollari esa 1010,3 ming so'mga teng. Viloyat respublika xalq iste'mol mollari (XIM) 29,0 foizini beradi va bunga asosan nooziq - ovqat mahsulotlari hisobidan erishiladi.

Faoliyat ko'rsatilayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining soni ham oshib bormoqda. Ularning umumiy soni 33976 ta, shu jumladan kichik korxonalar 4183 ta va mikrofirmalar 29793 ta. Ushbu sektorning YaHM ulushi 51,0, sanoatda-17,2 %, qishloq xo'jaligida 99,4 %, qurilishda 93,0, chakana savdoda 47,3 %; bu sohaning 14,3 foiz mahsuloti eksport qilinadi. Jami kichik biznes sub'ektlari tomonidan 2009 yilda 53955 yangi ish o'rinlari yaratilgan. Demak, viloyatda yaratilgan ish o'rinlari asosan shu sektor zimmasiga tushadi.

Mustaqillik yillarida Andijon viloyati sanoati tez rivojlanib bordi va respublika iqtisodiy makonida o'ziga xos o'sish qutbiga aylandi. Bu, eng avvalo, viloyatning Asaka shahrida joylashgan avvalgi "UzDEU avto" - hozirgi "GM Ozbekiston" qo'shma korxonasi asosida ro'y berdi. Navoiy viloyati sanoat ishlab chiqarishida bu yerdagi yirik tog'-metallurgiya kombinatining ahamiyati qanday bo'lsa, Andijon viloyatida ham ushbu avtomobilsozlik zavodi mavqei shunday. Ularsiz mazkur viloyatlar iqtisodiyoti butunlay boshqacha ko'rinishda bo'ladi.

Asakadagi zavod qurilishi 1994 yilda boshlanib, undan 1996 yilda birinchi o'zbek avtomobili ishlab chiqarilgan. Umumiy loyiha quvvati bir yilda 200 ming dona. Zavod konveyridan turli rusumdagi zamonaviy avtomobillar: "Tiko", "Neksiya - 1 va 2", "Matiz", "Damas", "Lasetti" - lar jahon bozorida, xususan MDH mamlakatlarida yaxshi mavqelarni zabt etgan. Hozirgi vaqtda aytish mumkinki, respublikamizda Andijon deganda Asaka, Asaka deganda yengil avtomobillar tushuniladi.

SHunday qilib, mashinasozlik, aniqrog'i avtomobilsozlik viloyat sanoati va umuman mintaqa iqtisodiyotining yetakchi tarmog'i hisoblanadi. Uning xissasiga jami yaratilgan sanoat mahsulotining 77,7 foizi to'g'ri keladi. Yengil sanoat mahsulotining qiymati 9,6 %, oziq - ovqat - 2,3 % .

Andijon viloyati sanoati o'ta tor ixtisoslashuv tomon borishini ko'rsatadi. CHindan ham, viloyat hozirgi sanoat mahsulotida mashinasozlik mavqei yildan-yilga oshib bormoqda. Bu, albatta, nisbiy ko'rsatkich, biroq uning zamirida ikki jarayon yotibdi: birinchidan, avtomobilsozlikning yuqori sur'atda rivojlanishi bo'lsa, ikkinchidan, boshqa sanoat tarmoqlarida bu ko'rsatkichlarning pastligini anglatadi. Binobarin, viloyatda an'anaviy, xususan yengil va oziq - ovqat sanoat tarmoqlarini ham jadal rivojlanishi talab etiladi. Bunday siyosat mavjud mehnat resurslaridan ko'p mehnat talab qiluvchi tarmoqlarda kengroq foydalanish hamda mintaqa iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish jihatidan ham to'g'ri hisoblanadi. Qolaversa, viloyatning demografik vaziyatidan kelib chiqqan holda, xalq iste'mol mollari, ayniqsa yengil va oziq - ovqat sanoati mahsulotlarini ko'proq ishlab chiqarish maqsadga muvofiqdir. Vaholanki, 2009 yilda jami XIM tarkibida oziq - ovqat mahsulotlari 4,8 foiz va yengil sanoat mahsulotlari 2,5 foizni tashkil qiladi, xolos. Bu, tabiiyki, juda past ko'rsatkich. SHu bois, bu tarmoqlarni ham ishlab chiqarishni Mahalliyashtirish dasturi nuqtai nazaridan rivojlantirish zarur hisoblanadi.

Sanoat tarmoqlari doirasida ishlab chiqarish hajmi va asosiy sanoat korxonalarini turlicha. Viloyatda jami yirik sanoat korxonalarini 53 ta. SHu o'rinda ta'kidlash joizki, Andijon viloyati sanoat korxonalarida ishlab chiqarish mujassamlashuvi juda yuqori; bu yerda, boshqa qator mintaqalarga qaraganda sanoat korxonalarining soni oz, lekin "oz bo'lsada - soz", aksariyati katta korxonalaridir.

Viloyatda taxminan 500 - 600 mln kVt soat elektr energiya ishlab chiqariladi. Bu 100 ming kVt quvvatiga ega bo'lgan Andijon GES dan olinadi. Kimyo va neft-kimyo sanoatida Janubiy Olamushuk, Andijon, Polvontosh konlaridan oz miqdorda (90 - 100 ming t atrofida) neft qazib olinadi va u Farg'ona neftni qayta ishlash zavodiga jo'natiladi. Ushbu tarmoqda "Uz Koran Ko" va "Uz Dongju Peing Ko" qo'shma korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda.

Mashinasozlik va metalni qayta ishlash sanoatining eng yirik korxonasi, albatta, "GM Ozbekiston" QK hisoblanadi. U tarmoqning 82,3 foiz mahsulotini ta'minlaydi. SHuningdek, bu yerda "Pritsep" AJ, "UzKodji", "UzTong Xong KO", "Uz Dong Yang Ko", "Uz Sam Yung Ko", "Uz Dong Vong Ko" qo'shma korxonalari mavjud (aksariyati Janubiy Koreya respublikasi bilan hamkorlikda yaratilgan). Yuqoridagilardan tashqari, mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoat tarmog'iga qarashli qator tajriba va ta'mirlash mexanika va boshqa zavodlar bor ("Marxamat - ETZ", "Andijonkabel", Avia mexanika zavodi va h.k).

Bu korxonalar ichida mahsulot qiymati bo'yicha "UzDong Yang Ko" qo'shma korxonasi avtomobil ishlab chiqaruvchi zavodidan keyingi ikkinchi o'rinda turadi - u tarmoqning 5,7 foiz mahsulotini beradi.

Alohida ta'kidlash joizki, Asaka avtomobil zavodi nafaqat viloyat, balki butun Farg'ona vodiysi sanoatining rivojlanishiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Zavod ehtiyoj qismlari mahalliy ishlab chiqarish hisobiga ko'proq tayyorlash maqsadida qo'shni viloyatlarda ham unga turdosh yoki yordamchi sanoat korxonalari barpo etilgan (masalan, Namanganda, Quvasoyda va boshqa shaharlarda).

Qurilish materiallari sanoati sust rivojlangan, u asosan g'isht ishlab chiqaruvchi zavodlardan iborat. Ilgari katta mavqega ega bo'lgan yengil sanoatda ham o'sish sur'atlari uncha katta emas. To'g'ri, xorijiy sarmoyalar hisobidan qator to'qimachilik korxonalari barpo etilgan (ularning eng yirigi SHahrixondagi "Anteks" QK hisoblanadi). Biroq, bu sur'atlar mavjud xom-ashyo, mehnat resurslari va ehtiyoj nuqtai nazaridan qoniqarli emas. Buxoro to'qimachilik kombinatiga o'xshash, sobiq Ittifoq davrida qurilgan Andijon to'qimachilik kombinati ham hozirgi kunda chuqur depressiv holatda.

Paxta tozalash zavodlari barcha qishloq tumanlarida joylashgan. Ular bir yilda, ob - havo, paxta hosiliga qarab 95 - 100 ming tonna paxta tolasi ishlab chiqaradi. Xuddi shunday sharoitda 20 - 23 ming tonna tozalangan o'simlik yog'i olinadi (Andijon va Asaka shaharlari). Umuman olganda, bir yilda 250,0 ming avtomobil, 718 ming dona podshipnik, 6184 dona velosiped (uni "Avia mexanika zavodi" AJ beradi), 8362 tonna lak bo'yog'i ("UzDongju Peing Ko" QK) ishlab chiqariladi. SHuningdek, o'rtacha bir yilda 103 - 120 ming tonna atrofida un olinadi. Uni Andijon va Asaka, Qo'rg'ontepa don mahsulotlari AJ beradi. Farg'ona vodiysida Qo'qondan tashqari Andijonda ham spirt zavodi - "Biokimyo" AJ bor.

Tahlillar ko'rsatishicha, so'nggi yillarda to'qimachilik sanoatidagi vaziyatlar ta'sirida yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish birmuncha kamayib bormoqda. Masalan, 2009 yilda 5589 ming kv.m ip gazlama (2008 yilda 6327 ming kv.m), 561 ming kv. m noto'qima materiallar (1096 ming kv m) tayyorlangan. Ayni vaqtda paypoq ishlab chiqarish qayta yo'lga qo'yilmoqda, tikilgan buyumlar, trikotaj mahsulotlari ham sezilarli darajada ko'paymoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlaridan 2011 yilda 16,8 ming tonna o'simlik yog'i (2008 yilda -20,5 ming t), 5285 ming shartli banka meva va sabzavot konservalari, 21,2 ming t go'sht va go'sht mahsulotlari, 35,1 ming t sut va sut mahsulotlari olingan. Omuxta yem ishlab chiqarish 56,8 ming tonnani tashkil qilgan.

Sanoat geografiyasiga qaraganda Andijon shahri viloyat yalpi sanoat mahsulotining 16,1, Asaka 65,8 foizini, demak, bu ikki shahar uning 4/5 qismidan ko'prog'ini beradi. Qishloq tumanlari orasida Andijon, SHahrixon, Asaka, Jalolquduq biroz ajralib turadi. Xonobod shahrining ulushi 2009 yilda 3,9 foizga teng bo'lgan.

Aholi jon boshiga hisoblaganda, viloyat bo'yicha o'rtacha 1404,8 ming so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgani holda, bu ko'rsatkich Asaka shahrida 39792,8, Xonobodda 3612,0 ming so'mga barobar. Qishloq tumanlari ko'rsatkichlari o'rtachadan past, eng past daraja Ulug'nor (13,7 ming so'm), Paxtaobod (66,8 ming so'm) va Buloqboshida (72,8 ming so'm) qayd etiladi.

XIM bo'yicha olganda, ularning 89,6 foizi birgina Asaka shahriga to'g'ri keladi. Viloyat markazining bu boradagi hissasi 4,0 %, Xo'jaobod tumaniniki - 1,2 %, Qo'rhontepaniki - 1,0 % . Qolgan qishloq tumanlarida salohiyat yo'q darajada. Aholi jon boshiga hisoblaganda ham xuddi shunday tafovutlar ko'zga tashlanadi - eng yuqori ko'rsatkich Asaka shahrida, qolgan hududlarda bu ko'rsatkich past darajada.

Andijon viloyatida nafaqat sanoat, balki qishloq xo'jaligi ham yaxshi rivojlangan. Buni viloyat o'zlashtirilgan yerlarning deyarli qolmaganligi ham isbotlab beradi. Agar hududning iqtisodiy salohiyatini aniqlash lozim bo'lsa, yaratilgan yalpi mahsulotni mintaqa maydoniga bo'lib topish mumkin. Albatta, mazkur viloyatda bu ko'rsatkich nihoyatda katta bo'ladi va u hududning iqtisodiy salohiyati yuksakligidan, iqtisodiyotining yuqori zichligidan darak beradi.

2.2 Tadbirkorlikni rivojlantirishda mintaqa mehnat resurslaridan oqilona foydalanish

Andijon viloyatining eng muhim jihati bu yerda aholining zich joylashuvidir. Aholi soni keyingi 21 yil maboynda yaqin 1.5 marta ko'paygan. Bu esa aholi zichligining yanada ko'tarilishiga olib kelgan.

Hozirgi vaqtda viloyat tumanlari aholisi Bo'z tumanida 56,5 ming kishidan SHahrixon tumanidagi 236,5 ming kishigacha farq qiladi (tafovut 4.18 ga barobar). SHahrixon tumani o'zining demografik salohiyati bo'yicha mamlakatimizning bu boradagi eng yirik hududlari qatoriga kiradi.

Aholi dinamikasi nuqtai nazaridan SHahrixon va Qo'rg'ontepa tumanlarida o'sish ancha yuqori. SHuningdek, Bo'z va Marhamat tumanlarida ham yuqoriroq. Ayni vaqtda demografik o'sish ko'rsatkichi Baliqchi va Oltinko'l tumanlarida birmuncha past. Xo'jaobod tumanidagi aholi sonining 1989 yilga nisbatan kamayishi esa uning tarkibidan Buloqboshi tumanini ajralib chiqishi sababli yuz bergan.

Viloyat bo'yicha aholi zichligi 1 kv km ga 588 kishi - bu nafaqat O'zbekistonda, balki butun MDH mamlakatlari bo'yicha ham eng yuqori ko'rsatkich hisoblanadi. SHahrixon (815,5 kishi) va Asaka (766,5 kishi) tumanlari esa zichlik ko'rsatkichiga ko'ra respublikamizda eng oldingi o'rinlarda turadi. SHu bilan birga zichlik Oltinko'l, Buloqboshi, Izboskan tumanlarida ham yuqori, faqat yangi o'zlashtirilgan cho'l hududlarda - Ulug'nor va Bo'zda u nisbatan past. Biroq, ularning ko'rsatkichlari ham mamlakat o'rtacha darajasidan 2 - 3 marta ziyod. Ko'rinib turibdiki, viloyat hududida antropogen bosim, demografik yuk nihoyatda yuqori. Bunday demografik vaziyat qator muammolarni, jumladan, milliy xalq an'analaridan kelib chiqqan holda uy - joy qurilishi, fermer xo'jaliklarini optimallashtirish, mehnat resurslaridan foydalanish kabi sohalarida muayyan qiyinchiliklarga olib keladi.

Viloyatda yirik-Andijon shahrida 365 ming kishi aholi bor; Asakada 57, SHahrixonda 65 ming kishi yashaydi. Demak, respublikamizning ayrim mintaqalaridan farq qilib, bu yerda o'rta bo'g'in shaharlar mavjud. Xonobod, Oxunboboev, Poytug', Qorasuv, Qo'rg'ontepa va Paxtaobodning har birida 20 - 30 mingdan aholi istiqomat qiladi. Qolgan 85 shahar joylar kichik shahar manzilgohlarini tashkil qiladi.

Viloyat markazi - Andijon negizida yirik shahar aglomeratsiyasi shakllanmoqda. Uning "yo'ldoshlari" orasida, eng avvalo, o'zbek avtomobilsozlari shahri Asaka hamda SHahrixon, Marxamat, Poytug' kabilar ajralib turadi.

Viloyat shaharlari turli funksiyalarni bajaradi: Andijon - ko'p funksiyali, iqtisodiy, siyosiy, madaniyat va fan markazi; Asaka va SHahrixon - sanoat markazlari, Qo'rg'ontepa, Xo'jaobod, Oxunboboev, Paxtaobod, Poytug', Ulug'nor, Baliqchi, Buloqboshi, Bo'z, Oqoltin, Oltinko'l, Kuyganyor - agrosanoat shahar va shaharchalar, tuman ma'muriy markazlari, Qorasuv, Xonobod - transport va savdo markazlari. Qolgan shahar joylarning aksariyati agrosaharchalar hisoblanib, ularning ayrimlarida hozircha shahar paydo qiluvchi tarmoqlar sust rivojlangan.

Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning aholi bandligini ta'minlashdagi rolga alohida e'tibor berib, "Hisobot yilida yangi ish o'rinlari tashkil etish orqali aholi bandligini ta'minlash masalasini hal qilish ham e'tiborimiz markazida bo'ldi. Hududiy bandlik dasturlarining amalga oshirilishi natijasida yaratilgan 1 millionga yaqin ish o'rnining 68 foizdan ko'prog'i qishloq joylarda tashkil etildi. Ta'kidlash joizki, yangi ish o'rinlarining 64 foizdan ortig'i kichik biznes, xususiy tadbirkorlik va fermerlik rivojini rag'batlantirishni yanada kuchaytirish, xususan, ularga yangi imtiyoz va preferentsiyalar berish, 28 foizdan ziyodi esa yangi korxonalar tashkil etish, kasanachilikning turli shakllarini kengaytirish hisobidan yaratildi."¹¹, - deb alohida ta'kidladi.

So'nggi yillarda kichik biznes sub'ektlarining mamlakatimizda yangi ish o'rinlarini tashkil qilish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishning muhim omili sifatidagi natijalari salmoqli bo'lib bormoqda (2.2.1-jadval).

2.2.1-jadval

O'zbekistonda yangi ish o'rinlarini yaratishda kichik biznes sub'ektlarining ulushi

Ko'rsatkichlar nomi	2008 yil	2009 yil	2010 yil	2011 yil
Yangidan tashkil etilgan ish o'rinlari, ming kishi	661	940,5	950	1000
shu jumladan:				
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda, ming kishi	374,3	391,8	600	640
Foiz hisobida	57,0	41,7	65	64
Jami iqtisodiyotdagi band bo'lganlar soniga nisbatan ulushi, foiz hisobida	72,7	74,2	74,3	74,8

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2010 yilda mamlakatimizda jami 950 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari tashkil etilgan bo'lsa, shundan qariyb 600 mingi kichik biznes hissasiga to'g'ri kelgan. 2011 yilda esa bir milliondan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi. Ta'kidlash joizki, yangi ish o'rinlarining 64 foizdan ortig'i kichik biznes, xususiy tadbirkorlik va fermerlik rivojini rag'batlantirishni yanada kuchaytirish, xususan ularga yangi imtiyoz va preferentsiyalar berish, 28 foizdan ziyodi esa yangi korxonalar tashkil etish, kasanachilikning turli shakllarini kengaytirish hisobidan yaratildi. 2011 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida mamlakatimizning iqtisodiyotida band bo'lgan jami aholining 74,8 foizi faoliyat ko'rsatdi

Andijon viloyatining muhim boyligi - bu uning mehnat resurslaridir. Ma'lumotlarga ko'ra, viloyatda mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni 1531 ming kishi, iqtisodiy faol aholi 1184 va iqtisodiyot tarmoqlarida band aholi 1139 ming kishini tashkil qiladi (2.2.2-jadval). Jami band bo'lganlarning 71,4 foizi moddiy ishlab chiqarishda, qolganlari nomoddiy sohalarga to'g'ri keladi. Sanoatda 12,0 %, qishloq va o'rmon xo'jaligida 38,9 %, transport va aloqada 2,6 %, qurilishda 5,3 %, savdo, umumiy ovqatlanish, moddiy texnika ta'minotida 7,8 % band.

Nomoddiy ishlab chiqarish sohaslaridan ta'lim, madaniyat, san'at, fan va ilmiy xizmatlarda 11,1 %, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va ijtimoiy ta'minotda 6,0 %, uy xo'jaligi va aholiga maishiy xizmat ko'rsatishda 2,5 % iqtisodiy faol aholi ishlaydi. Bir yilda jami 77,9 mingta ish o'rinlari yaratilgan bo'lib, ularning 81,6 foizi qishloq joylarga to'g'ri keladi. 2000 yilda

¹¹ 2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida. // Xalq so'zi, 2012 yil 20 yanvar, №14 (5434)

sanoatda 12,0 %, qishloq va o'rmon xo'jaligida 43,5 %, qurilishda 5,4%, savdo, umumiy ovqatlanishda 8,5 %, ta'lim, madaniyat, san'at va fanda 11,2 foiz mehnat resurslari band bo'lgan.

Mehnat resurslarini hududiy demografik tizim sifatida tadqiq etilganda ularning tarkibini o'rganish katta ahamiyatga ega. Hisob-kitoblarga ko'ra, viloyatda mehnat resurslari soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,0 foizga ko'payib, umumiy aholini 56,9 foizini tashkil qildi.

Iqtisodiy faol aholi soni 2010 yilning shu davriga nisbatan 3,3 foizga ko'paydi, shu jumladan 788,9 ming kishi iqtisodiyotda band bo'ldi. Rasman qayd etilgan ishsizlar soni 9,4 ming kishini tashkil etgani holda ishsizlik darajasi 0,9 foizga teng (bu respublika darajasiga teng).

2.2.2-jadval

**Viloyat aholi soni va mehnat resurslari
haqida ma'lumot**

№	SHaxar va tumanlar	O'rtacha yillik aholi soni (ming kishi)					Mehnat resurslari soni (ming kishi)				
		2007 y.	2008 y.	2009 y.	2010 y.	2011 y.	2007 y.	2008 y.	2009 y.	2010 y.	2011 y.
	Viloyat bo'yicha	2433,2	2466,2	2499,6	2533,4	2566,6	1383,6	1420,6	1457,6	1494,6	1531,6
1	Andijon sh	364,7	369,7	374,7	379,8	384,8	226,3	232,4	238,4	244,4	250,5
2	Asaka sh	56,6	57,4	58,2	59,0	59,8	33,7	34,6	35,6	36,5	37,5
3	Xonobod sh	36,9	37,4	37,9	38,4	38,9	20,6	21,2	21,7	22,3	22,9
4	Andijon t	197,8	200,5	203,2	206,0	208,7	110,5	113,4	116,4	119,3	122,3
5	Asaka t	191,3	193,9	196,5	199,2	201,8	107,1	110,0	112,9	115,8	118,7
6	Balikchi t	150,7	152,7	154,8	156,9	159,0	83,2	85,4	87,6	89,7	91,9
7	Bo'z t	54,0	54,7	55,4	56,1	56,8	29,1	29,9	30,7	31,4	32,2
8	Bulokboshi t	110,0	111,5	113,0	114,5	116,0	61,6	63,2	64,9	66,6	68,3
9	Jalalkuduk t	146,6	148,6	150,6	152,6	154,6	81,6	83,8	85,9	88,1	90,3
10	Izboskan t	186,2	188,7	191,3	193,9	196,5	104,5	107,3	110,0	112,9	115,7
11	Ulug'nor t	47,2	47,8	48,5	49,2	49,9	25,1	25,7	26,3	27,1	27,7
12	Qo'rgontepa t	163,0	165,2	167,5	169,8	172,1	91,9	94,4	96,9	99,4	101,9
13	Marxamat t	133,4	135,2	137,0	138,9	140,7	75,7	77,7	79,7	81,7	83,7
14	Oltinko'l t	133,8	135,6	137,4	139,3	141,1	73,9	75,9	77,8	79,8	81,8
15	Paxtaobod t	147,2	149,2	151,2	153,2	155,2	82,1	84,3	86,5	88,6	90,8
16	Xo'jaobod t	86,6	87,8	89,0	90,0	91,2	48,8	50,1	51,5	52,8	54,2
17	SHaxrixon t	227,2	230,3	233,4	236,6	239,7	127,9	131,3	134,8	138,2	141,7

Jadval: Viloyat mehnat boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

Mehnat resurslarining salmog'i ayniqsa Andijon shahri hamda Izboskan, SHaxrixon, Andijon va Asaka tumanlarida yuqoriligi bilan ajralib turadi.

Aholini ish bilan ta'minlash va ijtimoiy himoya qilish borasida qabul qilingan «Bandlik» dasturga asosan 2011 yilda viloyat bo'yicha 35000 nafar fuqarolar mehnat organlariga ish so'rab

murojaat etgan. Dasturga asosan ish so'rab murojaat etgan fuqorolardan 6700 nafarini iqtisodiyotning turli tarmoqlariga ishga joylashtirildi.

Ish bilan ta'minlash imkoniyati bo'lmagan fuqarolarga ishsizlik maqomi berilib, 300 nafari qayta o'qitishga yuborildi, 250 nafari ishsizlik nafaqasi bilan ta'minldi, 416 nafar fuqaro esa muddatidan oldin pensiyaga rasmiylashtirilishi va ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha belgilangan barcha dastur ko'rsatkichlari ortig'i bilan bajarildi.

Viloyat bo'yicha shahar va tumanlar mehnat bo'limlari tomonidan shahar va tumanlar hokimliklari, xuquqni muxofaza qilish organlari hamda «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatlari bilan hamkorlikda bo'sh ish o'rinlari bo'yicha mehnat yarmarkasi o'tkazilgan bo'lib, unda mingdan ortiq korxonalar va tashkilotlar o'zlaridagi 7000 tadan ortiq bo'sh ish o'rinlari bilan qatnashdilar. Mehnat yarmarkasida ishtirok etgan fuqarolardan 4000 nafari tadbirkorlik korxonalariga ishga joylashtirildi. Mehnat yarmarkasida qatnashganlardan 2000 nafari kasbga kayta tayorgarlikka yuborildi, 193 nafari xaq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb etildi, 2661 nafar fuqarolarga «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'rsida» gi Qonuni, Mehnat kodeksi va ijtimoiy himoyalani sh bo'yicha xuquqiy maslaxatlar berildi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynaladigan va teng sharoitlarda raqobatlashishga qodir bo'lmagan shaxslarni ham turli kichik va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga ishga joylashtirilgan. Ulardan, 1439 nafari mustaqil ravishda, 3128 nafari bevosita mehnat organlari yo'llanmasi bilan ishga joylashtirilgan. Jami ishga joylanganlardan 90 nafari nogironlarni, 2500 nafari oliy va kasb xunar ta'limi bilim yurtlarini bitiruvchilari, 100 nafari pensiya yoshiga yaqinlashganlarni, 1200 nafari yosh bolali onalarni, 112 nafari xarbiy xizmatdan zaxiraga bo'shatilganlarni, 82 nafari jazo muddatini o'tab qayganlarni tashkil etdi. Albatta mazkur mummolarni hal etishda viloyatda ko'zga ko'ringan tadbirkorlik korxonalarining va yirik tadbirkorlik muassasalarining ahamiyati katta. Xususan bunday korxonalar jumlasiga "Buyuk kelajak", "O'z Don Ju", "XXI asr" "Saxovat", Andijon shahar "Rivoj" xususiy korxonasi, Oltinko'l tumani "Kezar-Tur" qo'shma korxonasi, Shahrixon tumani "Taraqqiyot", Izboskan tumani "Lochin" xususiy korxonasi va boshqalarni kiritish mumkin.

Viloyat bo'yicha 2010-2011 yillarda aholini ish bilan ta'minlash dasturi»ga binoan joriy yil davomida ja'mi 40000 ta ish o'rinlari yaratilishi belgilanib, xaqiqatda 43266 ta yangi ish o'rinlari barpo etildi va dastur ko'rsatkichlari 125,4 foizga ortig'i bilan bajarildi.

SHundan, yangi tadbirkorlik korxonalarining ob'ektlarni ishga tushishi, mavjud korxonalarni qayta qurish va kengaytirish hisobiga, faoliyat ko'rsatib turgan korxonalarni mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan unumli foydalanish hisobiga, kichik korxonalar va xususiy firmalarni tashkil etish hisobiga 8950 ta, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan holda tadbirkorlikni rivojlantirish hisobiga 9747 ta, uy mehnatini tashkil etish hisobiga 18061 ta, fermer xo'jalagini tashkil qilish hisobiga 353 ta, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hisobiga 1020 ta va borzor infratuzilmani rivojlantirish hisobiga 233 ta ish o'rinlari yaratildi.

«Viloyatda 2009-2012 yillar davrida ayollarni ish bilan band etish dasturi»ga asosan 2009-2011 yilda ja'mi 30000 nafar ayollar uchun yangi ish o'rinlari yaratish belgilangan bo'lib, haqiqatda ja'mi 33340 ta ish o'rinlari yaratildi va belgilangan dastur ko'rsatkichi 111,5 foizga bajarildi. Andijon viloyatida aholini ish bilan bandligini quyidagi 2.2.3-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkin.

SHuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 5 yanvardagi PF-3706-sonli Farmoniga asosan viloyatdagi yirik sanoat korxonalarida kasanachilikni tashkil etish bo'yicha rejaga asosan viloyatda faoliyat ko'rsatib turgan yirik sanoat korxonalarida 2011 yil davomida 11000 ta ish o'rinlari yaratish belgilangan bo'lib, 10011 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

2011 yil mobaynida qoramolchilik bilan shug'ullanayotgan fuqarolardan 52860 nafariga mehnat daftarchalari yuritildi. SHundan 17759 nafariga yangi mehnat daftarchalari ochildi, qolgan 35088 nafarlarini o'zlaridagi mavjud bo'lgan mehnat daftarchalariga tegishli yozuvlar kiritildi.

Mehnat resurslari va aholiningish bilan bandligi

№	SHaxar va tumanlar	Band aholi soni (ming kishi)					Iqtisodiy faol aholi soni (ming kishi)				
		2007 y	2008 y.	2009 y.	2010 y.	2011 y.	2007 y	2008 y.	2009 y.	2010 y.	2011 y.
	Viloyat bo'yicha	1014,7	1045,2	1076,6	1108,8	1139,8	1077,6	1108,0	1132,4	1157,3	1184,7
1	Andijon sh	165,3	170,3	175,4	180,7	185,8	176,9	181,9	186,0	190,2	194,8
2	Asaka sh	24,8	25,6	26,4	27,2	28,0	26,4	27,2	27,8	28,4	29,1
3	Xonobod sh	15,2	15,7	16,2	16,7	17,2	16,1	16,5	16,9	17,3	17,7
4	Andijon t	80,9	83,3	85,8	88,4	90,9	86,0	88,4	90,3	92,3	94,5
5	Asaka t	78,7	81,1	83,5	86,0	88,4	83,4	85,8	87,6	89,6	91,7
6	Balikchi t	61,0	62,8	64,7	66,6	68,5	64,5	66,2	67,7	69,2	70,8
7	Bo'z t	21,6	22,2	22,9	23,6	24,3	22,9	23,5	24,0	24,6	25,2
8	Bulokboshi t	45,1	46,5	47,9	49,3	50,7	47,8	49,2	50,3	51,3	52,6
9	Jalalkuduk t	59,7	61,5	63,3	65,2	67,0	63,6	65,4	66,8	68,2	69,8
10	Izboskan t	76,7	79,0	81,4	83,8	86,2	81,0	83,2	85,0	86,9	88,9
11	Ulug'nor t	18,3	18,8	19,3	19,9	20,4	19,3	19,9	20,3	20,7	21,2
12	Qo'rgontepa t	67,5	69,5	71,6	73,8	75,9	71,6	73,6	75,3	76,9	78,8
13	Marxamat t	54,8	56,4	58,1	59,8	61,5	58,3	60,0	61,3	62,7	64,2
14	Oltinko'l t	54,2	55,8	57,5	59,2	60,9	57,3	58,9	60,3	61,6	63,1
15	Paxtaobod t	60,2	62,0	63,9	65,8	67,7	64,0	65,8	67,2	68,6	70,2
16	Xo'jaobod t	35,9	37,0	38,1	39,2	40,3	38,2	39,3	40,2	41,0	42,0
17	SHaxrixon t	94,8	97,7	100,6	103,6	106,5	100,3	103,2	105,4	107,8	110,4

Jadval: Viloyat mehnat boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

Qoramol boqish va chorvachilik maxsulotlari yetishtirish bilan band bo'lgan fuqarlardan 6018 nafari pensiya jamg'armasiga a'zo bo'lib, jami 37611,5 ming so'm miqdorida mablag' pensiya jamg'armasiga tushirildi.

SHuningdek, viloyat bo'yicha o'tgan 2010 yil davomida 2350 nafar kam ta'minlangan oilalarga korxonalar va tashkilotlar tomonidan bepul qoramol olib berish belgilangan bo'lib, 2011 yil davomida 2491 nafar kam ta'minlangan yordamga muxtoj oilaga qoramol olib berildi yoki reja 106,0 foizga bajarildi.

Bundan tashqari 2011 yil davomida Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining ish bilan ta'minlashga ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari xisobidan viloyatda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun 2000 nafar kam ta'minlangan oilalarga 500,0 ming so'mdan ja'mi 1.0 mlrd. so'm imtiyozli kreditlar ajratilishi belgilangan.

2011 yil davomida ish bilan ta'minlashga ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan 1000.0 mln so'm miqdorida imtiyozli kredit resurslari viloyatdagi tijorat banklarining hisob raqamlariga o'tkazib berildi. SHundan tijorat banklari **tomondan yuzlab oilalarga tadbirkorlik qilish uchun 1000.0 mln so'm (100 %) miqdorida imtiyozli kreditlar tarqatildi.**

Mehnat resurslaridan foydalanishning iqtisodiy tadbirlaridan eng asosiysi iqtisodiyot tarmoqlarida bozor talabiga muvofiq kichik korxonalarini barpo etishdir. Respublika prezidenti I.Karimov ta'kidlaganidek "Ta'kidlash joizki, yangi ish o'rinlarining 64 foizdan ortig'i kichik biznes, xususiy tadbirkorlik va fermerlik rivojini rag'batlantirishni yanada kuchaytirish, xususan, ularga yangi imtiyoz va preferentsiyalar berish, 28 foizdan ziyodi esa yangi korxonalar tashkil etish, kasanachilikning turli shakllarini kengaytirish hisobidan yaratildi"¹. Bu esa ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning miqyosini oshirishga qaratilgan bo'lishi darkor. Bunga esa, mehnat unumdorligini oshirish, ish joylarining moddiy-texnikaviy, texnologiya va sarmoya ta'minotlarini yaxshilash, yangi noqishloq xo'jaligi mehnati zonalarini tashkil etish, ish vaqtdan unumli foydalanish, ishlovchilar moddiy manfaatdorligini oshirish va oqilona soliqlar orqali erishish mumkin.

Viloyat shaharlari asosan sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi natijasida shakllanganligi (Andijon, Asaka, SHaxrixon, Xonobod shaharlari) bilan va sanoat tugunlarini asosan shu hududlarda to'planib qolganligi hamda qishloq mehnat resurslarining shahar tomon mayatniksimon harakati bilan xarakterlanadi (2.2.4-jadval).

2.2.4-jadval

Andijon viloyati shahar va qishloqlarida moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohalarida aholi bandligi

Ko'rsatkichlar ning nomlanishi	2007 yil		2008 yil		2009 yil		2010 yil		2011 yil	
	shah ar	qishl oq	shah ar	qishl oq	shah ar	qishl oq	shah ar	qishl oq	shah ar	qishl oq
Band aholi soni - hammasi	710,3	304,4	719,9	308,5	729,5	312,6	739,1	316,7	748,7	320,8
shu jumladan:										
Moddiy ishlab chiqarishda	512,7	219,7	519,6	222,7	526,5	225,7	533,4	228,7	540,4	231,6
sanoatda	87,2	37,4	88,4	37,9	89,6	38,4	90,8	38,9	92,0	39,4
qishloq va o'rmon xo'jaligida	281,5	120,7	285,3	122,3	289,1	123,9	292,9	125,5	296,7	127,1
transport va aloqada	18,0	7,7	18,2	7,8	18,4	7,9	18,6	8,0	18,8	8,1
qurilishda	35,1	15,1	35,6	15,3	36,1	15,5	36,6	15,7	37,1	15,9
savdo, umumiy ovqatlanish, MTT va qayta	56,6	24,2	57,4	24,5	58,2	24,8	59,0	25,1	59,8	25,4

¹ 2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi, 2012 yil 20 yanvar, №14

ishlov berishda										
boshqalarda	34,3	14,6	34,7	14,9	35,1	15,2	35,5	15,5	35,9	15,8
Nomoddiy ishlab chiqarishda	197,6	84,7	200,3	85,8	203,0	86,9	205,7	88,0	208,4	89,1
Uy xo'jaligi va aholiga nomaishiy xizmat ko'rsatishda	17,2	7,4	17,6	7,5	18,0	7,6	18,4	7,7	18,7	7,9
sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va ijtimoiy ta'minotda	41,2	17,7	41,8	17,7	42,4	17,7	42,9	17,8	43,5	17,8
ta'lim, madaniyat, san'at, fan va ilmiy xizmat ko'rsatishda	77,3	33,1	78,3	33,6	79,3	34,1	80,3	34,6	81,4	35,0
moliya va kreditda	9,6	4,1	9,7	4,2	9,8	4,3	9,9	4,4	10,0	4,5
boshqaruv apparati idoralarida	7,1	3,1	7,2	3,1	7,3	3,1	7,3	3,2	7,4	3,2
boshqalarda	45,1	19,4	45,7	19,7	46,3	20,0	46,8	20,3	47,5	20,6

Jadval: Viloyat mehnat boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

Qishloqlarda ishsizlikning yuqoriligiga asosiy sabablar quyidagilardir: mehnat haqqining pastligi, malaka darajasining ish joylari talabiga to'g'ri kelmasligi va zarar ko'rib ishlovchi korxonalarining tugatilishi. SHuningdek, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidan ortiqcha ishchi kuchining sekinlik bilan ozod etilishi, qayta ishlash sanoati, xizmat ko'rsatish va shaxsiy mehnat faoliyati kabi jabhalarda yangi ish joylarini tashkil etishda sarmoyalarning yetishmasligi, yangi yerlar o'zlashtirish miqyosining yuqori emasligi, mehnat va ishlab chiqarishni tashkil etishning samarali uslublari tadbiq etilishiga e'tibor berilmasligi va turli mulkchilikni yo'lga qo'yishdagi rasmiyatchilik singari to'g'anoqlar ishsizlar sonini ortib borishiga sabab bo'lmoqda. Jumaladan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining mavsumiy xarakteri nafaqat viloyatda, balki Respublikada ham qishloqlarda ortiqcha mehnat resurslari hosil bo'lishiga olib kelmoqda.

SHunday bo'lishiga qaramay Andijon viloyatida ishlab chiqarishning rivojlanishi bir muncha jadal sur'atlar bilan bormoqda. Lekin, viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish uchun yana bir qator ishlarni amalga oshirish kerak.

1. Aholini va mehnat resurslarini viloyat bo'yicha bir muncha tekis joylashtirish uchun aholini mehnat resurslari kam bo'lgan tumanlarga zich bo'lgan tumanlardan jalb qilish kerak. Bu jalb qilish majburan bo'lmasdan balki aholini uy-joy bilan ta'minlash, yer berish, maoshni ko'proq to'lash, yengilliklar berish va h.k.lar xisobiga bo'lish kerak.
2. Aholini ish bilan to'la ta'minlash maqsadida aholi zich bo'lgan qishloqlarda mahalliy xom ashyo xisobiga ishlaydigan kichik korxonalar ishga tushirish, sanoat tarmoqlarini rivojlantirish bilan bir qatorda aholini turmush darajasini, moddiy farovonligini oshirish, aholiga maishiy xizmat ko'rsatishni yanada yaxshilash.

3. Mehnat resurslaridan omilkorlik bilan foydalanish iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy moillaridan biri. U sifat va son mezonlari yordamida aniqlanishini xisobga olgan holda korxonalarining ishchi kuchiga bo'lgan talabini tenglashtirish, aholini ishga yaroqli qismini xalq xo'jaligi tarmoqlari bo'yicha optimal taqsimlash, turli soha mutaxassislari sonini xalq xo'jaligining tarmoqlari va ilmiy texnika taraqqiyoti talabiga moslashtirish, mehnatni texnik jihatdan qurollantirish, kadrlar malakasini oshirish.
4. Ayollar mehnati tarkibini qayta ko'rib chiqish Respublika rahbarlari oldida turgan asosiy vazifa xisoblanadi. Birinchi navbatda paxtachilikda band bo'lgan ayollar mehnatini yengillashtirish, ko'p bolalilarga sharoit yaratish, ish soatini qayta ko'rib chiqish, og'ir iqlim sharoitida mehnat qilayotganlarga qo'shimcha haq to'lash kabilarni joriy etish va sharoit yaratish zarur.

Qishloq xo'jaligi xom ashyosini qayta ishlovchi korxonalar (paxta zavodlari, ayniqsa ipak tikuv fabrikalari, konserva, sut zavodlari va h.k. lar) quvvatlarning yetarli darajada uyg'unlashtirish.

SHu bilan birga viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida yuqori malakali ishchi kuchlarining ahamiyati katta. Malakali ishchi kadrlar bilan ta'minlashda kasb-xunar kollejlari va oliy o'quv yurtlarining ham o'ziga xos o'rni mavjud. Kasb-xunar kollejlari iqtisodiyotning sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, aloqa va xizmat ko'rsatish sohalarida tashkil etilgan. Ayni vaqtda viloyatda bir nechta oliy o'quv yurtlari bo'lib, bu iqtisodiyotni malakali mehnat resurslar bilan ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

2.3. Tadbirkorlikni rivojlantirish asosida mehnat resurslaridan foydalanishning istiqbol yo'nalishlari

O'zbekistonda so'ngi yillarda tadbirkorlikni rivojlantirish, uni xar tomonla qo'llab-quvvatlash ushbu sohaga davlatning aralashuvini cheklash borasida talaygina ishlar amalga oshirildi, mamlakatimizda kichik biznes sub'ektlarini faoliyatining xuquqiy asoslari shakllantirildi. Natijada tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotidagi yetakchi kuchga aylanib, bozorlarimizni zarur tovar va xizmatlar bilan to'ldirish, aholi daromadi va farovonligini oshirishning asosiy manbai ish bilan bandlik bilan bog'liq muammolarni hal etishning muhim omiliga aylanib bormoqda.

Mehnat resurslari bilan ko'p ta'minlangan Andijon viloyatida bandlikni rivojlantirish uchun bugungi mehnatga layoqatli aholi ish bilan bandligining, ishsizlikning o'sishi, yangi ish joylarining yaratilishi, mehnat unumdorligining pasayishi, inflyatsiyaning mavjudligi, mulkchilikning turli shakllari rivojlanishi, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarning sustligi, haqiqiy mehnat daromadlarining kamayishi kabi sharoitlarda ishchi kuchiga talabni oshirish va uning taklifini kamaytirish bo'yicha kompleks tadbirlar ishlab chiqishdan iborat.

Mamlakatimizda ish bilan band aholining 74 foizidan ortig'i aynan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida bandligi bu sohaga e'tiborni yanada kuchaytirishni, yangi ish o'rinlarini tashkil etish, barqaror daromad manbalarini shakllantirishga zamin yaratish zarurligini taqozo etadi. Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning aholi bandligini ta'minlashdagi roliga alohida e'tibor berib "Eng muhimi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti tarkibida hal qiluvchi tarmoqqa, ijtimoiy faol aholimizning katta qismini qamrab olgan sohaga aylandi. Hozirgi vaqtda – shunga urg'u berib aytmoqchiman – ish bilan band aholimizning 74 foizdan ortig'i aynan shu sohada mehnat qilayotgani buning yaqqol tasdig'idir" deb ta'kidladi.¹²

¹² 2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasasi. // Xalq so'zi, 2012 yil 20 yanvar, №14

Viloyatdagi mavjud mehnat resurslari bilan bog'liq ko'rsatkichlar (2.3.1-jadval) bu boradagi amaliy ishlar ko'lamini yanada takomillashtirishni taqozo qiladi. Buni hisobga olgan holda Andijon viloyatida asosiy bosh maqsadlar qilib quyidagilarni belgilash mumkin:

- ijtimoiy yo'naltirilgan mehnat bozorini shakllantirish;
- mehnatga layoqatli ish bilan band bo'lmagan aholini ish joylari bilan

Andijon viloyati ishga muhtoj aholi soni va ishsizlik darajasi ko'rsatkichlari

№	SHaxar va tumanlar	Ishga muhtoj aholi soni (kishi)					, %				
		2007 y	2008 y.	2009 y.	2010 y.	2011 y.	2007 y.	2008 y.	2009 y.	2010 y.	2011 y.
	Viloyat bo'yicha	63200	60073	59465	59037	58609	5,9	5,4	5,3	5,1	4,9
1	Andijon sh	8251	8919	8814	8736	8658	4,7	4,9	4,7	4,6	4,4
2	Asaka sh	1600	1455	1442	1434	1426	6,1	5,3	5,2	5,0	4,9
3	Xonobod sh	1128	933	924	920	916	7,0	5,7	5,5	5,3	5,2
4	Andijon t	4641	5235	5191	5158	5125	5,4	5,9	5,7	5,6	5,4
5	Asaka t	5300	4758	4714	4681	4648	6,4	5,5	5,4	5,2	5,1
6	Balikchi t	4544	4168	4134	4112	4090	7,0	6,3	6,1	5,9	5,8
7	Bo'z t	1382	1373	1358	1348	1338	6,0	5,8	5,7	5,5	5,3
8	Bulokboshi t	2883	2730	2702	2685	2668	6,0	5,5	5,4	5,2	5,1
9	Jalalkuduk t	4010	3267	3228	3198	3168	6,3	5,0	4,8	4,7	4,5
10	Izboskan t	4574	4158	4107	4071	4035	5,6	5,0	4,8	4,7	4,5
11	Ulug'nor t	1315	1269	1258	1253	1248	6,8	6,4	6,2	6,1	5,9
12	Qo'rgontepa t	4559	4154	4116	4089	4062	6,4	5,6	5,5	5,3	5,2
13	Marxamat t	3849	3497	3466	3446	3426	6,6	5,8	5,7	5,5	5,3
14	Oltinko'l t	3534	3216	3184	3163	3142	6,2	5,5	5,3	5,1	5,0
15	Paxtaobod t	3327	3167	3126	3095	3064	5,2	4,8	4,7	4,5	4,4
16	Xo'jaobod t	2493	2432	2416	2405	2394	6,5	6,2	6,0	5,9	5,7
17	SHaxrixon t	5810	5342	5285	5243	5201	5,8	5,2	5,0	4,9	4,7

Jadval viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan

- ta'minlovchi hamda ishchi kuchiga talab va taklifni tartibga soluvchi mustahkam rivojlangan mahalliy va xorijiy bandlik xizmati tashkilotlari tizimini takomillashtirish;
- iqtisodiyotda oqilona bandlikni shakllantiruvchi chuqur tarkibiy islohotlarni amalga oshirish va ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish;
- sanoat, xizmat ko'rsatish va shaxsiy mehnat tarmoqlarida yangi ish joylari va o'smirlar, ko'p bolalik ayollar, pensionerlar va nogironlar uchun mehnatning kafolatlashtirilgan mintaqalarini tashkil qilish;
- mulkchilikning shirkat, ijara, hissadorlik va xususiy shakllari va shaxsiy yordamchi xo'jaliklarni rivojlantirish;
- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidan ortiqcha ishchi kuchini ozod qilish va uning talab va taklifini kamaytirishga ko'maklashuvchi ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarining miqdorini oshirish;
- mahalliy xodimlarning raqobatbardoshligi, safarbarligi va eksport qobiliyatini oshirish, yuqori kasbli mutaxassislar sinfi va aholida yangi iqtisodiy fikrlashni shakllantirish, erkin va mustaqil ish joylarini tanlash imkoniyatlarini yaratish;
- mehnat bozori va aholi bandligini tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy va huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish.
- mehnat bozori va aholi bandligini tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy va huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish.

Ushbu strategik maqsadlarga izchillik bilan erishish uchun mehnat bozori rivojlanishining asosiy bosqichlari va vazifalarini aniq belgilash zarur.

Mehnat bozori rivojlanishining birinchi bosqichida (1991-2000 y.y.) quyidagi vazifalar bajarilgan: mehnat birjasi va bandlik xizmatining boshlang'ich tashkilotlari tashkil qilib, ular ishsizlik va bo'sh o'rinlar miqdori va tuzilishining hisob-kitobi, tahlili va prognozi, band bo'lmagan aholini ishga joylashtirish va qayta o'qitish, bandlikka ko'maklashish jamg'armasini tashkil qilish va sarflash bilan shug'ullandilar; kichik va o'rta biznes va xususiy tadbirkorlik doirasida imtiyozli kreditlarni ajratish yo'li bilan yangi ish joylarini yaratishga uncha katta bo'lmagan moliyaviy yordam ko'rsatildi; iqtisodiyot tarmoqlarida, ayniqsa, qishloq xo'jaligida tarkibiy islohotlar amalga oshirilib, "paxta yakka hukmronligi"ni tugatish uchun shart-sharoitlar yaratildi; yollanma xodimlar va ish beruvchilar o'rtasida ijtimoiy-mehnat munosabatlarini tartibga solishning huquqiy asoslari yaratildi va boshqalar.

Bu davrda aholi ish bilan bandlik darajasining pasayishi, ishsizlikning oshishi, ishchi kuchiga talab va uning taklifi o'rtasida nomutanosiblikning ortishi sodir bo'ldi.

Ushbu bosqichning yakuniy natijasi – mehnat bozorini shakllantirish uchun ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratildi.

Ikkinchi bosqichda (2001-2011y.) quyidagi vazifalarni bajarish zarur: mahalliy investitsiyalar va xorijiy kreditlarni jalb qilish asosida qishloq xo'jaligi bo'lmagan yangi ish joylarini yaratish yo'li bilan ishchi kuchiga talabni oshirish; mehnatga layoqatli o'smirlar, ko'p bolalik ayollar, pensionerlar va nogironlar uchun kvotalangan ish joylarini tashkil qilish va ular iqtisodiy rag'batlantirilishi oshirish; band bo'lmagan shaxslarga yangi ish joylarini yaratish bilan shug'ullanuvchi ish beruvchilarga doimiy moliyaviy yordamlarni ko'rsatish; ishchi kuchi taklifini uning malakasini, raqobatbardoshligini oshirish yo'li bilan kamaytirish; mulkchilikning turli shakllarni shakllantirish va milliy iqtisodiyotda chuqur islohotlarni o'tkazish asosida aholining ish bilan bandligi sohasida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish; bandlik xizmatining bozor infratuzilmasini tashkil qilish; mehnat shartnomalarini tuzishni takomillashtirish va boshqalar. Bular bandlikni sezilarli o'sishi va ishsizlikning kamayishi hamda ishchi kuchiga talab va uning taklifi o'rtasidagi farq qisqarishiga ko'maklashadi. Ushbu maqsadlarda amalga oshirilgan tadbirlar samarasini 2.3.2-jadval ma'lumotlari asosida ko'rish mumkin. Jadval ma'lumotlari taxlili shuni ko'rsatib turibdiki keyingi besh yil davomida tashkil etilgan ish o'rinlar asosan kichik korxonalar va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish xisobiga amalga oshirilmoqda. Mazkur xolat viloyatda keyingi davrlarda ham mehnat resurslaridan foydalanishda tadbirkorlik sohalari o'z ahamiyatini saqlab qolishini ko'rsatadi. Shu sababli inqirozga qarshi

choralar

Andijon viloyatida yaratilgan yangi ish o'rinlari to'g'risida ma'lumot

Andijon viloyatida yaratilgan yangi ish o'rinlari ko'rsatkichlari									
Yillar	Jami yangi ish o'rinlari	SHu jumladan Quyidagilar xisobiga:							
		kichik korxonalar va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish	SHundan				uy mehnatini tashkil etish (yirik korxonalar kooperatsiyasini xisobga olgan holda)	Ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish	yangi ob'ektlarni ishga tushirish, kengaytirish, Qayta Qurish va faoliyat ko'rsatayotgan mavjud ishlab chiQarishni rivojlantirish
			kichik korxonalar va mikro firmalar, yuridik shaxs maQomiga ega bo'lmagan tadbirkorlikni rivojlantirish	fermer xo'jaliklarini rivojlantirish	uy mehnatini tashkil etish (yirik korxonalar kooperatsiyasini xisobga olmagan holda)	bozor infra tuzilmasini rivojlantirish			
2007 yil	54562	42160	21046	314	20711	89	6313	712	5377
2008 yil	51256	44575	22643	160	21608	164	4782	494	1405
2009 yil	49887	44999	23607	181	21028	183	3030	543	1315
2010 yil	49916	45908	23667	195	21845	201	2121	597	1290
2011 yil	54498	49953	25735	221	23769	228	2405	677	1463
2012 yil prognoz	56423	51551	26589	237	24481	244	2578	726	1568

Jadval viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan

dasturidan kichik biznesni rivojlantirishni rag'bartlantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Uchinchi bosqichda (2012-2020y.y.) quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutiladi: ishchi kuchiga talab oshishi va uning taklifi kamayishiga yo'naltirilgan tadbirlarni amalga oshirishni kuchaytirish; bandlik xizmati va bu xizmat infratuzilmasi qudratli va tez rivojlanuvchi tizimini yaratish; oqilona bandlikni shakllantirish; ishsizlikni yo'l qo'yiladigan darajasigacha qisqartirish; ish bilan band bo'lmagan mahalliy xodimlarning malakasi, raqobatbardoshligi, ijtimoiy himoyasi va eksportini oshirish; mehnat bozori, bandlik va ishsizlikni tartibga solishning samarali tashkiliy-iqtisodiy va huquqiy mexanizmlarini yaratish.

Qayd etilgan vazifalarni bajarish ijtimoiy yo'naltirilgan mehnat bozorining samarali shakllanishiga olib keladi. Mazkur bozor rivojlanishining keyingi bosqichida ishchi kuchi talab va taklifi o'rtasidagi bozor muvozanatiga erishish mumkin.

Bularning hammasi mehnat bozori samarali rivojlanishiga yo'naltirilgan ishchi kuchiga talabning oshishi va uning taklifi kamayishi bo'yicha iqtisodiy, ijtimoiy va tashkiliy tadbirlar majmuasini ishlab chiqish zarurligini taqozo etadi.

Yuqoridagilarga asoslanib, viloyat va uning tumanlarida aholining bandligini oshirish, ishchi kuchidan samarali foydalanishda quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- ma'lumki, aholining asosiy qismi qishloq joylarida yashaydi. SHuning uchun qishloq aholisining faoliyati sohalari va turlarini kengaytirish talab qilinadi;

- ijtimoiy yo'naltirilgan mehnat bozori faoliyatini yildan yilga kengaytirib borib, ular tomonidan o'tkazilayotgan mehnat yarmarkalarini muntazam o'tkazilishini ta'minlash zarur;

- ishchi kuchiga talab va taklifni tartibga soluvchi mustahkam rivojlangan mahalliy va xorijiy bandlik xizmati tashkilotlari tizimini takomillashtirish lozim;

- yangi ish joylarini tashkil etish, aholi bandlik darajasini oshirish va ishlab chiqarish salohiyatidanmaqsadli foydalanish bo'yicha chuqur iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish zarur;

- qayta ishlash sanoati, xizmat ko'rsatish sohasida yangi ish joylarini yaratish kerak;

- ishchi kuchiga talabning oshishi va ishsizlikning kamayishini ta'minlovchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish lozim;

Mazkur choralarni amalga oshishi istiqbolda iqtisodiyot tarmoqlarida ham o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Bu holat tadbirkorlikning rivojlanishi unda mehnat resurslari bandligini oshishiga sabab bo'lishi mumkin.

XULOSA

Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi iqtisodiy faoliyat jarayonlari va uning natijalarini aks ettiruvchi ko'rsatkichlarda tadbirkorlik ulushining yuqori bo'lishiga ham bog'liq ekanligi shubhasizdir. Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlaganidek "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakatimiz taraqqiyotida, avvalambor, xalqimiz uchun munosib hayot barpo etish, oldimizda turgan murakkab va mas'uliyatli vazifalarni amalga oshirish borasida qanday hal qiluvchi o'rin va ta'sirga ega bo'lib borayotganiga bugun amaliy hayotimizda har qadamda guvoh bo'lmoqdamiz. Va bu soha ertangi kunimiz, istiqbolimizning haqiqatan ham mustahkam poydevoriga aylanib, yanada rivojlanib borishi aniq va muqarrardir.¹³

Kam xarajat hisobiga yangi ish o'rinlari yaratish imkoniyati, yirik biznes kirib bora olmaydigan bozor segmentlarini egallay olish qobiliyati, ayniqsa, xizmat ko'rsatish sohasida va uncha katta bo'lmagan mahalliy resurs bazalarini o'zlashtirishda juda qulay tashkiliy shakl ekanligi xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning ahamiyati beqiyosligini ko'rsatadi. Shu sababli ham tadbirkorlikni jadal rivojlantirish masalasi mahsulot ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish va shuningdek, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish masalalari bilan chambarchas bog'langan.

Kichik biznesni rivojlantirish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlarning natijasi quyidagilar orqali namoyon bo'ladi:

- kichik biznesning mamlakatimiz YaIMdagi ulushi 2011 yilda 54 foizga yetganligi;
- ish bilan band xodimlar pul daromadlarining 74,8 foizi aynan kichik biznes sohasida shakllanayotganligi;

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada erkinlashtirish va rag'batlantirish bo'yicha ishlar jadal amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 24 avgustdagi PF-4354-sonli "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulash ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi Farmonlari qabul qilinishi ham bu boradagi amaliy ishlar doirasini yanada kengaytiradi va bir qancha vazifalarni yuklaydi.

Birinchidan Andijon viloyati iqtisodiyotni isloh qilishda ishlab chiqarish savdo moliya integratsiyasini viloyatdagi va uning shaharlardagi tabiiy imkoniyatlaridan foydalanish bu imkoniyatlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan Andijon viloyati va uning shaharlardagi qo'shma tadbirkorlikning koorparativ tuzilmalari ishlab chiqarish texnologik tuzilmalariga yaqin bir-birini to'ldirib turuvchi ilmiy-texnika, agrosanoat, qurilish, transport, tashqi savdo komplekslarida tuzilishi mumkin.

Uchinchidan isloh qilinayotgan iqtisodiyotda tadbirkorlikning muhim darajada rivojlantirish Andijon viloyatining O'zbekistondagi mehnatni hududiy taqsimlash jarayonida faol ishtirok etish darajasini Respublika ahamiyatiga ega bo'lgan yirik va fundamental muammolarni yechishga imkon beradi.

Viloyatdagi ana shunday tarmoqlar qatoriga neft, sement, yengil va to'qimachilik sharoitini kiritish mumkin. Andijon viloyatida agrosanoat kompleksining asosiy yo'llaridan biri tadbirkorlik salohiyatidan birinchi navbatda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishdan, xususiy sektor rolini oshirishdan iborat.

¹³ 2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi, 2012 yil 20 yanvar, №14

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 24 avgustdagi "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4354-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 4 maydagi "Tadbirkorlik sub'ektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4296-sonli Farmoni. // Xalq so'zi, 2011 yil 5 may.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" davlat dasturi to'g'risida"gi 2011 yil 7 fevraldagi Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 27 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2012 yilga mo'ljallangan investitsion dasturi to'g'risida"gi 1668-sonli Qarori.
5. Karimov I.A. 2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tariladigan yil bo'ldi O'zbekiston Respublikasi I.A.Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonning ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasini// Xalq so'zi, 2012 yil 20 yanvar, № 14 (5434).
6. Karimov I.A. Mamlakatimizda demoraktik isloxlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi- T.: O'zbekiston, 2010.
7. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009.
8. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: O'zbekiston, 2010.
9. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendentsiya va ko'rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo'ljallangan prognozlar: statistik to'plam. – T.: "O'zbekiston", 2011.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot. - 2012. – 282 bet.
11. Abdullaev O. Iqtisodiy geografiya va ekologiya. Namangan. 2002 y.
12. Abdullaev M va boshq.. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug'at // To'ldirilgan uchinchi nashri / – T.: «SHarq», 2006.
13. Abdurahmonov Q.X. va boshqalar «Aholini ijtimoiy muxofaza qilish» (O'quv qo'llanma) T.: 2004.
14. Abulqosimov H.P., Nabiev E., Rahimova D.N., Yuldashev D. O'zbekiston taraqqiyotining ijtimoiy iqtisodiy muammolari va ularni hal qilish yo'llari. T., "Universitet" nashriyoti, 1999.
15. Abdulkarimov Z.M. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy muammolarni bartaraf qilish choralari. -Andijon.: 2006. -184 b.
16. Ashurova D.S., Abdullaeva M.K. Kichik biznesni rivojlantirish orqali aholi turmush darajasini oshirish. «O'zbekiston iqtisodiyoti: erishilgan yutuqlar, muammolar va rivojlanish istiqbollari» Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma'ruzalar to'plami. -T., 2008.
17. Boev X.I. Aholini turli mulkchilik sharoitida ijtimoiy himoyalashni tashkil etish va boshqarish. (o'quv-metodik qo'llanma). T., TDIU nashriyoti. 1995.
18. Kulikov I.P. i.dr. Sovremennaya ekonomika truda: Monografiya. M.: ZAO «Finstatinform», 2001.

19. Mahmudov N.M, Madjidov SH.A. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2010. – 89-90-b.
20. Maxmudova M. Geografiyaning asosiy muammolari. Namangan. 2008 y.
21. Mirsobitova F. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik jahon moliyaviy–iqtisodiy inqirozi sharoitida mamlakatning taraqqiyot kafolatidir. «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta'sirini O'zbekistonda yumshatishning mintaqaviy xususiyatlari» Respublika ilmiy – amaliy anjumani materiallari to'plami. Termiz., 2010y.343 b.
22. Ostonov E. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida ishsizlik darajasini pasaytirishning mintaqaviy muammolari. «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta'sirini O'zbekistonda yumshatishning mintaqaviy xususiyatlari» Respublika ilmiy – amaliy anjumani materiallari to'plami. Termiz., 2010y.201 b.
23. Odegov Yu.G., Rudenko G.G., Mitrofonov N.G. Рынок труда и социальное партнорство: Монография. М.: «Хронограф», 1998.
24. Rasulov M. Bozor iqtisodiyoti asoslari. –T.: “O'zbekiston”, 1999.-380 b.
25. Soliev A. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning dolzarb masalalari. T., 2005 y.
26. Sobirov A. O'zbekiston Respublikasiga xorijlik investorlarni jalb qilish shakllari. /Iqtisodiyot va ta'lim, 2011 y., 5-son.
27. Sokolova M.I., Dement'eva A.G. Upravlenie chelovecheskimi resursami: Uchebnik dlya vuzov. Izdatel'stvo: M: Prospekt, 2005. -240s.
28. Spelova P. Ochered bezrabotnix ne sokrashaetsya. - <http://www.vz.ru/economy>.
29. Towards a Comparative Political Economy of Unfree Labour: Case Studies and Debates (Library of Peasant Studies, No. 16) Avtor: Tom Brass ISBN: 0714644986 God: 2005.
30. Uzoqov N., Ochilov A. agrar tarmoqdagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi va ayrim muammolari. «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta'sirini O'zbekistonda yumshatishning mintaqaviy xususiyatlari» Respublika ilmiy – amaliy anjumani materiallari to'plami. Termiz., 2010y. 184 b
31. ”O'zbekiston Iqtisodiyoti” axborot va tahliliy sharh. –T.: 2008-2011
32. Quvondiqova D.Q. O'zbekiston mintaqalarida kichik biznesni rivojlantirish xususiyatlari. «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta'sirini O'zbekistonda yumshatishning mintaqaviy xususiyatlari» Respublika ilmiy – amaliy anjumani materiallari to'plami. Termiz., 2010y. 256 b.
33. Qurbonov S., Ubaydullaev X.X. **Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muxim omilidir.** «O'zbekiston iqtisodiyoti: erishilgan yutuqlar, muammolar va rivojlanish istiqbollari» Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma'ruzalar to'plami. -T., 2008.
34. Yuldashev R.Z. Investitsionnoe obespechenie privatizirovannykh predpriyatiy v Uzbekistane: upravlencheskiy aspekt. Monografiya. –T.: Iqtisodiyot, 2009. – 93 s.

Internet saytlari.

1. www.gov.uz–O'zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyati portali
2. www.press-service.uz–O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot xizmati rasmiy sayti
3. www.mfer.uz–O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo Vazirligining rasmiy sayti
4. www.UzA.Uz–O'zbekiston milliy axborot agentligi rasmiy sayti
5. www.review.uz – “Ekonomicheskoe obozrenie” jurnalining rasmiy sayti
6. www.cer.uz – Iqtisodiy tadqiqotlar Markazining rasmiy sayti

7. www.uzreport.com – biznes axborotlari portali
8. www.eurasianews.com – YevroOsiyo tadqiqotlar Markazining rasmiy sayti
9. www.vip.lenta.ru – Internet nashriyoti
10. www.InternetNews.com – yangiliklar serveri
11. <http://www.ziyonet.uz>